

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK-371.302.2

SADIQOVA UMIDA BOTIROVNA

**PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY
MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.**

5A110901 – Pedagogika

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiyasi

Ilmiy rahbar: _____
p.f.n.dots.M.Salaeva

Urganch - 2013

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I-bob. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning nazariy masalalari.....	9
1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo.....	9
2. Ma'naviy madaniyat va uning tarkibiy unsurlari mohiyati.....	22
3. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning mavjud holati.....	32
I bob xulosasi.....	41
II-bob. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish omillari.....	44
1. Sharq mutafakkirlari ijodida ma'naviy- axloqiy tushunchalarning yoritilishi	44
2. Darsdan tashqari sharoitda pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	62
II bob xulosasi.....	70
III-bob. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmi.....	72
1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid tajriba- sinov ishlarining mohiyati.....	72
2. Tajriba- sinov ishlarining samaradorlik darajasi qiyosiy va statistik tahlili.....	77
III bob xulosasi.....	79
Xulosa.....	81
Foydalanilgan adabiyotlar.....	83
Ilovalar.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharoitida to'g'ri ma'nodagi mustaqil fikrlash har bir yoshning qobiliyati, olamga faol munosabatini, malakasini tarkib toptirishda muhim ma'naviy omil ekanligi ta'kidlanadi. «Tafakkur» jurnali muharriri bilan qilgan suhbatida ta'kidlagan edi. «Talimning yangi shakli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr - qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha — o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi. [9.21,22.]

Fikr tafakkurni keltirib chiqaradi va u o'ylash, muhokama yuritish ma'nolarini bildiradi. Mutafakkir so'zining o'zagi ham “fikr”dir. Lekin har qanday fikrleydigan kishini mutafakkir deb bo'lmaydi. Shunday fazilatga ega bo'lgan kishi har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri o'yu xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi. [6.,6-b.]

Barkamol inson tushunchasiga kiradigan muhim talablar sharq tafakkurida alohida tizimni tashkil qiladi. Ular shaxsning bosiqqligi, vazminligi, bag'ri kengligi, kamtarligi, odamxunligi, umuminsoniylik ruhining kuchliligi, serfarzandligi, keksa va yoshlarga mehr-shavqatliligi kabilar bilan xarakterlanadi. Bular sirasiga kishining boshqa e'tiqoddagi yoki dindagi insonlarga nisbatan sabr-toqatliligi, hurmati, tabiatni sevish, butun jonli tabiatga muhabbat bilan qarash kabi fazilatlarni ham kiritish mumkin. Respublikamizda istiqlool tufayli shakllanayotgan va tobora kishilar e'tiqodiga aylanayotgan mustaqillik tafakkuri mazmunini tashkil etadigan bunday tushunchalar tobora hayotimizda keng o'rin egallamoqda.

Komil insonni tarkib toptirish tushunchasi yangi insonni tarbiyalash bilan uzviy bog'langan va uning asosiy talablaridan kelib chiqadi. Bunda yoshlarimizda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirish va chuqurlashtirish

ahamiyati favqulodda katta ahamiyat kasb etadi. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniyati va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish hissiyotidir. Bu haqida keyingi mavzularni yoritishda batafsil to'htalib o'tamiz.

Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida komil inson tushunchasi va uni tarbiyalashning yo'l - yo'riqlari, mohiyati, tamoyillari alohida ta'kidlab o'tilgan. Xalqning o'tmishi va kelajagi, shon – shuhrati haqidagi har bir fikrida komil inson g'oyasi, uni voyaga yetkazishda inson tarbiyasi mustaqillikka erishgan mamlakatimizda davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilingan.

Respublikamiz ta'lim tizimida so'nggi yillar mobaynida yosh avlodni aqliy, jismoniy va ma'naviy kamolotga yetkazishda tub islohotlar amalga oshirildi.

“Komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilganmiz,- deb yozadi I.Karimov, - Komil inson deganda, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulqu atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli insonlarni tushunamiz ”[6.3.]

Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: “Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. ” [5. 40,41]

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish o'quvchilarning yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo'lishlarini, ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligini hamda oilalar bilan mustahkam aloqaning o'rnatilganligiga ham bevosita bog'liqdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'naviy madaniyatga ega shaxsning muqobili sifatida qo'llaniladigan “komil inson” masalasi eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri “Avesto”da markaziy o'rin egallagan. Zardushtiylik g'oyalariga ko'ra ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ish birligidan iborat

axloqiy uchlik komil inson ma'naviyatining asosi sanalgan. Islom ta'limotida esa inson ma'naviyati uning ruhan yetukligi, o'y-fikrlari, xatti-harakatlari va faoliyatida "yaxshilik", "ezgulik" yoki "savob" tushunchalarining ustuvorligi bilan belgilangan bo'lib, o'z xohish-istaklaridan ko'ra atrofdegilarning manfaatlari uchun xizmat qilish, ularga yordam berishga intiluvchilar komil inson sifatida e'tirof etilgan.

G'.As-Salom, J.Bahronov, A.Bobomurodov, A.V.Botvinova, O.Vafojev, V.Gumboldt, N.Jo'rayev, U.Jo'rayev, Sh.Jabborov, M.Z.Zaripov, A.Ibrohimov, I.A.Ilin, M.Imomnazarov, F.Ismoilov, I.A.Karimov, N.A.Koval, M.F.Lafasov, S.Mamashokirov, N.A.Muhitdinov, Q.Nazarov, B.Norboyev, S.Nosirxo'jayev, M.Oripov, S.Otamurodov, B.Siddiqov, J.T.Tulenov, U.A.Toshmurodova, V.D.Shadrikov, X.O.Shayxova, N.L.shexovskaya, A.Erkayev, E.Y.Yusupov, S.M.Qodirov, Q.Qobilbekov, Sh.Qorayev, Z.G'ofurov va boshqalar tomonidan "ma'naviyat" tushunchasining mohiyati, ijtimoiy, falsafiy va diniy jihatlarini, milliy hamda mustaqillik ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlari, ma'naviy madaniyatning tarkibiy unsurlari hamda shaxsda ma'naviy madaniyatni shakllantirish yo'llari tahlil etilgan.

M.Inomova, Z.Ismoilova, U.Mahkamov, T.Mahmudov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, S.Ochil, E.A.Seytxalilov, J.S.Toshmatova, M..Turopova, M.Usmonov, J.Y.Hasanboyev, O.Hasanboyeva, N.Xo'jamurodov, Z.Qurboniyozova, Sh.E.Qurbonov, M.Quronov va boshqalarning ishlarida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarda ma'naviy madaniyat unsurlarini shakllantirish, ma'naviy madaniyatni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, oila imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi o'rganilgan.

Tadqiqot maqsadi: pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning pedagogik jihatlarini o'rganish orqali ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Tadqiqot mavzusiga doir ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish hamda pedagogika kollejarining hujjatlari bilan tanishish
2. Pedagogik kuzatish orqali pedagogika kollejlari o'quvchilarining ma'naviy madaniyat unsurlariga egaliklarining mavjud darajasini baholash.
3. Ijtimoiy-gumanitar o'quv fanlari hamda sinf va darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarning pedagogika kollejlarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o'rganish.
4. Pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish andozasini ishlab chiqish va o'quvchilarning ma'naviy madaniyatga egalik darajasini baholovchi mezonlarni asoslash.
5. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni samarali rivojlantirishni imkon beruvchi shakl, metod va vositalarni belgilash.
6. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda yanada yuqori samaradorlikka erishish imkonini beruvchi ilmiy metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, yo'llari, bosqichlari, samarali shakl, metod va vositalari

Tadqiqot metodlari: mavzuga doir ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, pedagogik, psixologik, metodik va badiiy adabiyotlar, mavjud pedagogik tajribalar hamda pedagogika kolleji o'quvchilari faoliyatini yorituvchi hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatish, modellashtirish, anketa, suhbat, intervyu, pedagogik tajriba, matematik statistika.

Tadqiqotning ilmiy farazi: pedagogika kolleji o'quvchilarining yosh xususiyatlariga xos individual psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning uzviy birligi, aloqadorligini ta'minlash

asosida ularni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish, mavjud tarbiyaviy omillardan samarali foydalanish hamda bu jarayonga nisbatan texnologik yondashuvning qaror toptirilishiga erishilsa, pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda samarali natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari.
2. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy-texnologik unsurlari (bosqichlari, samarali shakl, metod va vositalari).
3. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayonining andozasi.
4. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatning rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar.
5. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid ilmiy metodik tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish muammosi Respublikada birinchi marta tadqiq etilib, nazariy asoslari ochib berildi.
2. Nazariy tahlil hamda pedagogik kuzatish asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy-texnologik unsurlari (bosqichlari, samarali shakl, metod va vositalari) aniqlandi.
3. Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga oid nazariya va ta'limotlarni tahliliy o'rganish orqali pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayonining andozasi ishlab chiqildi hamda o'quvchilarning ma'naviy madaniyati rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar asoslandi.
4. Tadqiqotning ilmiy nazariy g'oya va muhim amaliy natijalarini umumlashtirish negizida pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy

madaniyatni rivojlantirishda yanada yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlovchi ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotni olib borish davrida mavjud adabiyotlar va olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda "ma'naviyat" va "ma'naviy madaniyat" tushunchalarining mohiyati ochib berildi; pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning o'ziga xos psixologik-pedagogik jihatlari yoritildi va asosiy bosqichlari belgilandi. Shuningdek, pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishda ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'rtasidagi o'zaro izchillikni ta'minlash, fanlararo aloqadorlikka tayanish imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalar va qo'lga kiritilgan muhim amaliy natijalar pedagogika fanini boyitishga xizmat qiladi; ulardan "Milliy istiqlol g'oyasi", "Ma'naviyat asoslari", "Huquqshunoslik", "O'zbekiston tarixi", "Adabiyot", "Axloqshunoslik", "Nafosatshunoslik", "Iqtisodiy bilim asoslari" kabi turkum ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda hamda sinf va darsdan tashqari sharoitlarda ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Respublika, viloyat jurnal va maqola to'plamlarida mavzuga oid 4 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy mazmun 80 betda yoritilgan

I-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI.

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo.

O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallash jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda kishilar tafakkurida tub o'zgarish, milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon uchinchi ming yillik arafasida amalga oshmoqda.

Shu munosabat bilan Prezident I.A. Karimovning quyidagi so'zlari ham o'ta ibratlidir: "Biz kelgusi asrga o'zimiz bilan nimani olib o'tishimiz mumkin? Va nimalardan voz kechishimiz darkor?. Yangi ming yillikda qanday muammolarning yechimi bizning diqqat - e'tiborimiz markazida turmog'i lozim? ".[9.,4-b]

Madaniy meros- bu o'tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o'zlashtirish yo'llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalaridir. O'zlashtirish yoki aniqrog'i, madaniy meros jarayoni o'ta muhim bo'lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir butun holda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish kerak bo'lmaganidek, o'tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat o'z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo'llarini tanlaydi. Bundan tashqari ma'naviy meros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni qayta ko'rib chiqish va qayta baholash, ularning o'zaro bog'liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni

asrash va uzatish, hayot me'yorlari, voqelikni estetik idrok qilish xususiyati o'zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda bo'ladi.

Agar madaniyat va ma'naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo'lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san'at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilar qadimdan amal qiladi, bu – namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at; boshqa usullar keyinroq paydo bo'ldi, bu – kino tasviri, ohonrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatlarda ham haqiqatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq. Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo'lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo'lishi mumkin emas.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayotining turli sohalarida keng qamrovli islohatlar amalga oshirildi. Islohatlarni amalga oshirishda jamiyat hayotini tubdan yangilash, fuqarolarda ishlab chiqarish va mehnatga bo'lgan munosabatni qaror toptirish, yaratuvchilik bunyodkorlik hissini tarbiyalash, ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishiga erishish hamda erkin, mustaqil va har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish maqsadlari belgilangan. Bu maqsadlarga erishish ta'lim tizimida qator vazifalarni amalga oshirish, yangi ish uslublarini amaliyotga tadbiq etilishini taqozo qiladi.

Islohatlar doirasida milliy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni boyitish yo'lida samarali ishlarning amalga oshirilganligi kelajagimiz yaratuvchilari bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga qo'yilgan. "Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi,

irodasini baquvvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni" deya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan berilgan ta'rif tushuncha mazmunini to'la ifodalashga xizmat qiladi. [5.,9-b]

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida shaxs yetukligini ifodalovchi muqobil tushuncha sifatida qo'llanilayotgan "ma'naviyat" tushunchasining mohiyati falsafiy, pedagogik va badiiy nuqtai nazardan tadqiq etila boshlandi. Ayni vaqtda "ma'naviyat" tushunchasining mohiyati o'nlab yondashuvlar asosida ochib berilgan.

Ma'naviyat insonni ruhan yo'qsalishini ta'minlaydigan kuch ekan, ma'naviy madaniyatga ega bo'lish o'z-o'zidan o'sib kelayotgan yosh avlodni buzg'unchi g'oyalarga qarshi keskin kurashish va jamiyatda ezgu g'oyalarning qaror topishi uchun xizmat qilishga yo'naltiradi. Bu haqiqatni chuqur anglagan holda bugungi kunda ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish va bu jarayonda milliy qadriyatlar mazmunida ifodalangan ezgu g'oyalarga tayanib ish ko'rishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

"Ma'naviyat insonning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.U yuq joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi.Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarning biladi"[8.,79-b.]

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni

tarbiyalashdan iborat».[10.,19,20-b]

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs.

Pedagogik hodisa sifatida shaxsning ma'naviy madaniyatga ega bo'ishi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Shaxs oila, maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan ijtimoiy tarbiya negizida ma'naviy madaniyatning dastlabki unsurlarini o'zlashtiradi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida esa o'quvchilarda mavjud bo'lgan ma'naviy madaniyat unsurlari yanada rivojlantiriladi. Umumiy va kasbiy bilimlarni targ'ib etuvchi maxsus fanlarning ma'rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, sinfdan va ta'lim muassasalaridan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy ta'siri, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining shaxs va mutaxassis sifatida kamolga yetishiga ta'sir etuvchi ijobiy mazmunga ega ijtimoiy omillardan samarali foydalanish bu borada kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish o'qituvchilarning yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lishlarini, ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligini hamda oilalar bilan mustahkam aloqaning o'rnatilganligiga ham bevosita bog'liqdir.

Muammoni nazariy jihatdan dastlab o'rganish pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish yo'lida muayyan to'siqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, pedagogika kollejlarida o'qitiladigan turkum o'quv fanlari (mas., "Milliy istiqlol g'oyasi", "Ma'naviyat asoslari", "Konstitutsiya asoslari", "Huquqshunoslik", "Adabiyot", "O'zbekiston tarixi", "Axloqshunoslik", "Nafosatshunoslik", "Iqtisodiy bilim asoslari" kabi fanlar) mazmunida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, biroq, ular bilan

ixtisoslik fanlari o'rtasida integratsiyaning qaror toptirilmaganligi; ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ko'p hollarda o'zaro izchillik va aloqadorlikning ta'minlamaganligi; ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda ta'lim muassasalari bilan oilalar o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada mustahkam emasligi; ta'lim muassasalari tomonidan pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha oilalarga metodik yordam ko'rsatish sifatining pastligi; pedagogika kollejlari o'qituvchilarining o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid metodik ishlanmalar bilan ta'minlanmaganliklari kabi holatlar tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi.

Muayyan jamiyatda ma'naviyatning qaror topganligi ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omil va axloqning inson ma'naviyatining asosi ekanligi, mustaqillik sharoitida jamiyat ma'naviyatini shakllantirish, turli ko'rinishdagi faoliyatni tashkil etishda ma'naviy madaniyatga egalikning ahamiyati A.Azizxo'jayev, A.Jalolov, Y.J.Jumaboyev, M.Ismoiliy hamda I.Saifnazarovlar tomonidan ochib berilgan.

“Madaniyat” tushunchasining etimologik xususiyati, shaxsda axloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish yo'llari M.Xayrullayev, R.Mahmudov, M.Usmonboyeva, N.Hakimov, A.A.Hamrayevlarning e'tiborlarini tortgan.

Pedagogika kollejlarida ta'limni tashkil etish, uni boshqarish va sifatini nazorat qilish, maxsus fanlarni o'qitish hamda bu jarayonda muammoli ta'limdan foydalanish, o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o'spirinlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish masalalariga Sh.A.Abdullayeva, L.I.Bojovich, I.I.Zokirov, U.I.Inoyatov, L.P.Uzoqova, R.R.Hakimov kabi tadqiqotchilarning ishlarida alohida o'rin ajratilgan.

Ko'plab tadqiqotchilarni o'zbek xalqi tarixida o'ziga iz qoldirgan shaxslar fenomeniga xos ma'naviy-axloqiy sifatlari, mazkur shaxslar namunasida yosh avlodda ma'naviy madaniyatni shakllantirish usullari qiziqtirgan bo'lib,

B.Ahmedov, I.Mo'minov, O.Sultonmurod, O.Sharofiddinov, A.Qayumov, O.Qoriyev va boshqalarning ishlarida muammoning ana shu jihati alohida o'rganilgan.

Globallashuv jarayonida turli mafkuraviy tahdidlarning yuzaga kelayotganligi, ular tomonidan yoshlar, jumladan, kollejlarda o'quvchilarining ta'sir doirasiga olinish xavfining mavjudligi, o'rta maxsus ta'lim bosqichida o'quvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish tobora keskinlashayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning o'ziga xos samarali yo'li ekanligi tadqiqot mavzusining "Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik jihatlari" sifatida tanlanishiga imkon berdi.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligi jahon tarixida "g'oyalar kurashi" sifatida muhrlandi. Bu yillarda turli kuchlar tomonidan o'z maqsadlarini ifodalovchi mafkuraviy qarash va g'oyalarni keng hududlarda yoyish orqali aholi, ayniqsa yoshlarni ta'sir doirasiga olish harakatlari boshlandi. Bu harakatlar negizini asosan buzg'unchi g'oya, qo'poruvchilik kayfiyatini ifodalovchi qarashlar tashkil etdi. Dunyoqarashi yetarli darajada shakllanmagan, hayotiy tajribalari kam bo'lgan yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularni o'zlarining hokimiyatga ega bo'lish, boylik orttirish kabi g'arazli maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi kurashga rag'batlantirish mafkuraviy tahdidlarning muhim jihati sanaladi. Aynan mana shu jihat o'ta xavfli sanaladi. Binobarin, hali borliqni to'la anglab yetmagan, muayyan e'tiqodga ega bo'lmagan yoshlarning turli g'oyaviy qarashlarga ergashishlari oson bo'lib, buning natijasida jamiyat ijtimoiy hayoti izdan chiqadi, milliy va etnik nizolar avj oladi, qurolli to'qnashuvlar yuzaga keladi. Shu sababli mafkuraviy tahdidlarning mavjudligi yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish va samaradorligini ta'minlashni taqozo etadi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri bo'lgan pedagogika kollejlari o'spirin-o'quvchilarining katta qismini qamrab olgan. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash, ularda dastlabki kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish yo'lida faoliyat yurituvchi pedagogika kollejlarning

pedagogik jamoasi tomonidan o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish talab qilinadi.

Pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishi quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishlari, dunyoqarashlarini boyitish va ma'naviy-axloqiy sifatlarni yanada rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lishlariga erishiladi;

ularning turli mafkuraviy tahdid yoki jinoyatchi guruhlar ta'siriga tushib qolishlarining oldi olinadi;

o'quvchilarda atrof-dagilarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, hayotlari va faoliyatlari uchun qadrlil bo'lgan ijtimoiy sub'ektlar yoki moddiy narsalarni yoqtirish, e'zozlash va ularni ko'paytirish istagi uyg'onadi;

o'quvchilarning hayotni qadrlash, umr yo'lini to'g'ri belgilash va uni mazmunli o'tkazish, hayotiy maqsadlarni aniqlab olish hamda ertangi kunga qat'iy ishonch bilan qarash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi;

kasbiy jihatdan kamolga yetishish yo'lida mutaxassislik bilimlarini chuqur o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarini boyitish hamda malakalarni shakllantirish, shuningdek, yaratuvchilik o'quvchilar faoliyatining muhim yo'nalishiga aylanadi.

Tanlangan muammoni nazariy o'rganish "ma'naviyat" va "ma'naviy madaniyat" tushunchalari mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan yoritish imkonini berdi.

Tarixiy davrlarda madaniyatning keng ko'lamli rivoji sivilizatsiya tushunchasida ham ifodalanadi. Sivilizatsiya ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyoti bosqichini bildirib, moddiy madaniyatning turdosh nomidir. Hozirgi davrda sivilizatsiya insoniyatga begona bo'lgan ob'ektlarni qayta o'zgartirishni bildiradi, madaniyat esa insonning fazilati va holati, tashqi dunyoga bog'liqligi yoki erkinligining mezonidir.

Ma'naviy madaniyat ancha ilgaritdan o'rganila boshlangan. Insoniyat tarixining boshlaridan kishilar ma'naviy madaniyatni belgilashga, uning shakllanish sabablarini aniqlanishga, ma'naviy boylik ijodkori va yaratuvchilari qanday sifatlarga ega bo'lishlari kerakligi va ma'naviy ijodkorlik jarayonini tushuntirishga uringanlar. Ilgari mavjud bo'lmagan madaniyat hodisasini vujudga keltirishga xizmat qiluvchi ijodiy kuchlar hayolat, fantastik tadqiqotlarga e'tiborlarini qaratadi. Insondagi barcha qobiliyat tabiatan mavjud bo'lib, uning shakllanishi insonning paydo bo'lish davridan boshlangan. Insondagi ajdodlardan qolgan yovvoyilik xususiyatlari tabiat bilan doimiy o'zaro hamkorlikda, uni o'zlashtirishi davomida yo'qolib, bilimi rivojlandi. Undagi jismoniy va ruhiy jihatlar takomillashib, intellektual va xissiy imkoniyatlar kuchayib bordi. Inson jismoniy, fikriy va his qiluvchi mavjudod sifatidagi dastlabki davridanoq o'ziga xos dunyosini yarata boshladi: Moddiy va ideal dunyosi taraqqiyotining har bir davrida fikrlash va his qilish tarzining maxsus aqliy tasavvur tizimi to'plandi. Bunda barcha umuminsoniy madaniyat singari turli xalqlar tomonidan yaratilgan mustaqil madaniyatlar manbai ham mavjud. Insonning ideal dunyosi- bu uzluksiz harakat shaklining benihoya rang-barangligi, murakkab me'yor, munosabatlar darajasiga ega bo'lgan obrazlar rivoji va vazifasi, tiplarning voqelik bilan aloqasidir.

“Ma'naviyat insonni qon-qoni suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra qatra bo'lin singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, xa;o; mehnat qilish dunyoni tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan baxramand bo'lish, ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi”-deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov[5.,28-b]

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, falsafa, san'at, axloq, xuquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish va

ma'lum vazifalar majmuidan iborat, har birining o'ziga xosligida ifodalanadi. Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san'at) «chegaralanganlikda» farqlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarida (axloqiy, estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi. Madaniyatdagi hayratlanarli funksional haqqoniylik shuki, unda hech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo'q, barcha madaniyat hodisasi o'zaro foydali umumiy aloqadorlikda kechadi. Tadqiqotchilar madaniyatning turli funksiyalarini ko'rsatadilar.

Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ijodkorligi faoliyatlari natijalari-tasavvurlar, g'oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at sohalari, axloqiy va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqarishdan hosil bo'ladi. Bunday ma'naviy qadriyatlar o'zicha paydo bo'lmaydi, balki muayyan taraqqiyot bosqichida o'zaro munosabatga kiradigan kishilar tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyat – ma'naviy ijodning shunchaki mahsuloti bo'lmay, balki ijodiy faoliyatni amalga oshiradigan kishilar o'rtasidagi munosabatni ham bildiradi. Shuningdek, ma'naviy madaniyat ta'lim va fan sohasi bilan bog'langan ilmiy faoliyat va bilim olish jarayoni bilan uzviy bo'lgan bilish madaniyatini, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada, ma'naviy madaniyat o'zaro uzviy bog'liqda inson ma'naviy fazilati va faoliyatining narsalarda moddiylashgan shaklida, inson tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar shaklida (ilm, san'at, huquq, axloq qoidalarida) mavjud bo'ladi.

Madaniyatning quyidagi funksiyalari bevosita shaxs bilan bog'liq:

- «Gominizatsiya» - urug'doshlik xususiyatlarini o'rganish.
- Madaniyat «aqli odam» uchun xos bo'lgan-nutq, narsalarni ramziy ifodalash (yoki mavhum tafakkur) xususiyatlarini har bir odam o'rganishga imkon yaratadi.

-Sotsializatsiya- (umumlashtirish)- jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a'zosi sifatida zarur hisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarni o'zlashtirish. Bu funksiya idrok, tafakkur, nutq, so'zlarni qo'llanilishi, ohangi, imo-ishora va shama, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bog'liq.

- Inkulturatsiya - avvalo o'z xalqining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo'lish (Bu jarayonni muhokama qilishga alohida mavzu bag'ishlanadi).

- Individualizatsiya - madaniyat ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o'ta rivojlantirishga mo'ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida- (jamiyat, insoniyat) eng asosiy bo'g'in bo'lib, bu har bir aniq shaxs madaniyatining barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bog'liq bo'lishini bildiradi.

Har qanday jamiyat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, boy bilim olami bo'lib, u insonni qaerda yashashi va harakat qilishini, umuman, dunyodagi va jamiyatdagi o'rnini belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o'rnatadi. qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi axloq shakllarini yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxsinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakllanadi. Munozaralar tug'ilgan hollarda jamiyatni mustahkamlashga munosib bo'lgan bartaraf qilishning qulay usullari topiladi.

Jamiyat, avvalo tarixning muayyan bir taraqqiyoti bosqichida tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi bo'lib, rivojlanuvchi kishilar hayotiy faoliyatlarining majmuidir. Shuningdek, jamiyat kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq tipi. Ishlab chiqarish munosabatlarining majmui ijtimoiy munosabatlar deyiluvchi jamiyatni, ya'ni tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidagi jamiyatni vujudga keltiradi.

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o'z navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda o'zining me'yoriy qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi. Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi

muhim masala hisoblangan.

Inson tabiatning oliy mahsuli bo'lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning mahsuli, ham uning sub'ektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy vujudga aylantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida faqat narsalar yaratib qolmay, o'zini, o'z shaxsiyatini ham qayta yaratadi. Bu jarayonda inson o'zini takror ijod qiladi va shu jihatdan u ijtimoiy mavjudotdir. Odamlarning ijtimoiy mohiyati shaxsda mujassamlashgan holda o'z ifodasini topadi.

Shaxs odamning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy faoliyatining ifodalanishidir. Odam ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish natijasida shaxsga aylanadi. Inson ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida muayyan huquq va burchlarga egadir. Bu uning shaxs ekanligini ifodalaydi. Indivud shaxsga aylanishi uchun bir qancha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Shaxs deyilganda, umuman insonni emas, balki tipik va erkinliklarga ega bo'lgan odam tushuniladi. U ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan odamdir. Indivud alohida bir kishi bo'lib, boshqalardan farqlanuvchi xususiyatlarga ega. Indivud ham ijtimoiy mavjudotdir. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish asosida shaxs sifatida shakllanadi. Indivudning shaxs tariqasida voyaga yetib borishi u mansub bo'lgan tarixiy sharoitlardan, yashab, ta'lim-tarbiya olib turgan jamiyatdan ajralmasdir.

Shaxsni jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan ajratib bo'lmaganidek, jamiyat taraqqiyoti ham insonning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabat bir-biriga bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan munosabatlardir. Ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs turmushining turli-tuman ko'rinishlari, xususiyatlari shakllanadi. Shaxsning shakllanishida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. har bir shaxsda u mansub bo'lgan jamoaga, millatga, elatga, jamiyatga xos jami xususiyatlar va belgilar bo'ladi. Shaxs o'z hayotining butun mazmunini jamiyatdan, kishilar jamoasidan oladi. har qanday shaxs ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarning uzviy birligi

ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolatida ob'ektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila, o'quv dargohlar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, matbuot, mahalla, ko'cha singari omillar ham shaxsni tarbiyalashda muhimdir. Ob'ektiv shart-sharoitlarning shaxsga ta'siri sub'ektiv omillar orqali o'tadi. Shaxs ijtimoiy mavjudot sifatida muayyan erkinlikka ham egadir. Uning erkinlik darajasi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, mulkiy munosabatlarga ham bog'liq. Erkinlik har bir shaxsning tabiiy huquqidir. Shaxslarning insoniy huquqlari va erkinliklarni chegaralab qo'yish, paymol qilish; milliy, diniy kamsitishlar; irqchilik; xalqlarning tili, urf-odatlar, tarixi, madaniy meroslari, milliy qadriyatlariga bepisand qarash, ularning huquq va manfaatlarini kamsitishdir.

Shaxsning huquq va erkinliklaridan tashqari uning jamiyat va umuminsoniyat oldidagi burchi va ma'suliyati ham bor. Inson o'zi yashab turgan jamiyatning qonun-qoidalar, tartiblari, axloqiy, huquqiy normalariga amal qilmaslik, uning muammolari, qiyinchiliklariga befarq qarash aslo mumkin emas. Har bir mamlakatning konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan qonunlarga amal qilish, boshqa fuqarolarning milliy qadr-qimmatini hurmatlash, jamiyat manfaatlariga, turmush tarziga, odob-axloq va madaniyatga zid va nojo'ya harakatlarga murosasiz bo'lish, Vatanni himoya qilish va boshqa shu kabilar shaxsning burchi va ma'suliyatidan iborat.

Har bir shaxsning umumxalq manfaatlariga to'la taalluqli bo'lgan burchlar va ma'suliyatlari ham bo'ladi. Bular tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini qo'riqlash, madaniy-tarixiy yodgorliklarni saqlash haqida g'amxo'rlik qilish, boshqa xalqlar va mamlakatlar bilan do'stlik, tinchlikni saqlash singarilardir.

Barcha sivilizatsiyali jamiyatlarda shaxsning erkini bo'g'ib qo'yish, uning huquqlariga yo'l bermaslik, unga xiyonat qilish yoki uning jamiyat oldidagi burch va ma'suliyatini bajarmasligi qonun yo'li bilan ta'qiqlanadi. Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaqat keng bilimga ega bo'lishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, axloqiy-estetik jur'atni va tug'ma iste'dodni

bildiradi. Ziyolilar-aqliy mehnatning xilma-xil murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi qatlamdir (fan va madaniyat xodimlari, o'qituvchilar, muhandislar, texniklar, shifokorlar).

Madaniyatlilik deganda kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, sahovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, sahiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni ham hurmat qilish xislatlari anglashiladi.

Ziyolilik aqliy kamolat egasi bo'lish, nazariy masalalarni anglashga, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdir. «Ziyolilik» yo'qsak darajada kamol topgan intelligentni, keng bilimli, yo'qsak madaniyatlilikni anglatga, «Ziyoli» kishilarni tabaqalari orasidagi ijtimoiy qatlamni anglatadiki, bu qatlam yuqori malakali aqliy mehnat bilan mashg'uldir.

Yetarli bilimga ega bo'lmagan holda dunyodagi barcha narsalar to'g'risida fikr bildiruvchi kishi diletantdir. Diletantlik madaniyat kamligining belgisi bo'lib, chinakam madaniyat va ziyolilikka aloqasi yo'qdir. Tarbiyalilik ziyolilikning asosiy belgisi bo'lib, uning umumiy madaniy saviyasi ko'pincha nutq madaniyatida aks etadi. Madaniy nutq avvalo to'g'ri nutq demakdir. Madaniyatli kishi obrazli, ifodali va chiroyli nutq orqali o'z fikrini bayon qiladi. Ziyolining estetik didi baland bo'ladi, ya'ni san'at asarlarining go'zalligi to'g'risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go'zalligi haqida fikr yuritishga, qo'pollik va adolatsizlikka qarshilik ko'rsatib uni bartaraf qilishga qodir bo'ladi. Hamma narsada me'yori va uyg'unlik tuyg'usi ziyolilikning yo'qsak xususiyatidir.

Ziyolilik bilim, ilm va tarbiya bilan kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga umumiy madaniyatdan tashqari qalb nozikligi, umuman, hayotga munosabatda yo'qsak ong, ijtimoiy faollik ham kiradi. Demak, «ziyolilik» tushunchasi faqat aqliy mehnat kishisiga taalluqli emas. Ziyoli deb chuqur intelegentga, intuitiv oliyjanoblikka ega bo'lgan, ma'naviy ehtiyojlari keng har bir kishini atash mumkin. Madaniyatshunoslikni o'rganishdan maqsad ziyolilikni tarbiyalashdir. Ziyoli- intellektual shaxs, uning madaniyatli kishidan farqi, jamiyat va millat

taqdiriga ma'naviy javobgar bo'lgan shaxsligidadir. Intellektual shaxs individual holatlarda o'z fikridan qanoatlanmaydigan, o'ziga-o'zi qarshi boruvchi, o'zini-o'zi inkor qiluvchi ichki xususiyatlarga ega bo'lgan ziyolidir. Ziyolining shu xususiyatlarida komillik belgilari namoyon bo'ladi.

Shaxsning komillikka erishuvini ta'minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatini rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongliligini oshirish, axloqiy va estetik nafosatini tarbiyalashda madaniyatning tarkibiy qismlari, sohalari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan farqlanishiga ko'ra insonning mehnat madaniyati, munosabat madaniyati, axloq madaniyati, badiiy-tafakkur madaniyati, dunyoqarashi ruhni olami haqida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurni, axloqiy-estetik qadriyatlarni, axloqiy-huquqiy nizomlarni, urf-odat va an'analarni qamrab oladi.

2. Ma'naviy madaniyat va uning tarkibiy unsurlari mohiyati.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir davrda jamiyat va davlat o'zligini uskurmalariga munosabati turli ma'rifiy madaniy g'oyalar tushunchalar anglagan vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli ilmiy bilim, mehnat va kasb- hunar ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda manfaatdordir. Bunday shaxsni shakllantirishda asrlar davomida xalqimizning ma'naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, umumiy ta'lim oldiga qo'yilgan eng muhim maqsad - umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish va shular asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan isloxotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda olg'a surilayotgan g'oyalar quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning ma'naviy madaniyatini hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida ko'rish lozim;

2. Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishmoq lozim;

3. Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechmoq zarurdir.

Madaniyat arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish. Ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir. Madaniyat shaxs kamolatiga ikki xil jihatdan ta'sir qilib, ular quyidagilardan iborat:

1. Moddiy ya'ni texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar.

2. Ma'naviy ya'ni fan, adabiyot maorif, san'at, din umuminsoniy va milliy ruhiy qadriyatlar.

Ana shu moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi o'zaro tasiri natijasida aqlan yetuk, axloqan barkamol, jismonan sog'lom, dunyoqarashi keng, yaxlit shakllangan ya'ni komil inson shakllanadi. Ma'naviy madaniyat bu shaxsning tashqi olam, holat ichki kayfiyatlar ta'minlash, erkparvarlik orqali qabul qilib olish jarayonidir. Bunda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, shaxsning ijtimoiy tuzum to'g'risidagi qarashlari ma'naviy madaniyatning negizini tashkil etadi va uning mohiyatini namoyon etuvchi ob'ekt shaxs hisoblanadi. Shaxs ma'naviy madaniyatining asosiy manbasi bo'lgan ma'naviy ruhiy qadriyatlar, fan, adabiyot, san'at, maorif, din komil insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy madaniyat aqliy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabilardan tuzilgandir. Bular ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi yoki talaba jamiyatning har bir a'zosi ongiga singdiriladi. Aqliy madaniyat - jamiyat va tabiat qonun qoidalariga munosabat; Xodisalar va ularning bir - birlari bilan bog'liqligi, insoniyat hayoti, turmush tarzi, jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish holatlari jarayonida shakllanadi. Aqliy madaniyat ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qismlarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy madaniyat bu –insonparvarlik, xalollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik,

ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, ma'suliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik kabi tushunchalar majmuasi bo'lib insonning ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanadi va takomillashadi. Xulosa qilib aytganda, axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida shaxsning xulq -atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyatning negizini axloqiy ong tashkil qilib, u vijdon, burch, ma'suliyat, hayo, g'urur kabi insonning ichki ruhiy hissiyotiga asoslanadi. Axloqiy madaniyatning asosiy poydevori axloqiy odat bo'lib, u shaxsning aniq maqsadni ko'zlab, doimiy, izchil uyushtirilgan faoliyati, jamiyat a'zolarining o'zaro madaniy munosabatlari, o'zaro ishonchlari, aloqalari zamirida maydonga keladi. Ma'naviy madaniyatning yana bir mezon estetik his bo'lib, u insonni o'rab turgan muhitga munosabatidir. U hayot haqiqatini o'zlashtirishning, ijodiy fikrlash qobiliyatini ta'minlashning asosiy bosqichidir: u insonda ijobiy maqsadlar paydo bo'lishga xizmat qiladi. Masalan, badiiy kitoblarni o'qishni inson hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashiga ta'siri.

Ma'naviy madaniyatning yana bir tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy madaniyatsiz ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini to'liq tushunib, to'liq anglab bo'lmaydi.

Siyosiy madaniyat bu ijtimoiy faollikning jamiyat oldidagi ma'suliyat, ijtimoiy va ma'naviy javobgarlikni his etish, haqiqat uchun kurashish, burchga sadoqat, millatlar, elatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik, so'z va faoliyat hamkorligi, tinchlik, tenglik, ozodlik va o'zligini anglash kabi mezonlarini o'z ichiga oladi. Siyosiy madaniyat faqat erkinlik, ozodlik va mustaqillik sharoitida o'zini to'la namoyon qiladi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishida diniy ta'limot, ya'ni asrlar davomida tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelayotgan diniy ma'naviy qadriyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Din siyosat bo'lmasdan u ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir.

Biz yuqorida sanab o'tgan ma'naviy qadriyatlar mezonlariga amal qilish

yaxlit tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy madaniyatning shakllanishida asosiy yo'nalishni beruvchi metodologiya quyidagi muammolarni yechishda xizmat qilmog'i lozim:

Milliy o'quv muassasasi negizida ta'lim- tarbiya tizimini milliyalashtirish;

1. Har bir jamiyat a'zosi xatti-harakati, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirishda tayanch bo'lish;

2. Shaxsni milliy, umumbashariy madaniyat manbalarining mohiyatini chuqur anglab yetishida dasturiy yo'llanma berish;

3. Shaxsni madaniy qadriyatlar orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishida to'g'ri yo'llanma berish.

“Ma'naviyat-insonning, xalqning,jamiyatning kuch qudratidir.U yo'q joyda hech qachon baxt saodat bo'lmaydi.-deydi yurtboshimiz.Ma'naviyat haqida gap ketar ekan men avvalo, insonning ruhiy poklanish va yo'qsalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”[78.,3-b]

Biz ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatida tutgan o'rni xususida ushbu mavzuning oldingi bo'limlarida qisman to'htalib o'tgan edik. Umuman olganda ma'naviy qadriyatlarning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rnini quyidagilar orqali ifodalashimiz mumkin:

1. Ma'naviy qadriyatlar har bir millatning o'z ona tilida yaratilganligi tufayli ushbu tilning naqadar jozibali ekanligini namoyon etadi. Bu esa shaxsda o'z ona tiliga bepisand bo'lmaslik tuyg'usini rivojlantiradi.

2. Ma'naviy qadriyatlar har bir millatning o'zligini namoyon etadi. Chunki, ular bevosita shu millatning ruhiyati asosida shakllangandir.

3. Ma'naviy qadriyatlar har bir shaxsni o'z xalqi va vatani tarixini sevishtga, o'z ajdodlari bilan har lahzada faxrlanishga undaydi.

Ushbu aytib o'tilganlardan ko'rinib turganidek, ma'naviy qadriyatlarni

qadrlash, ulug'lash va rivoj toptirish har bir o'z xalqiga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'ladigan ma'naviy barkamol insonning muqaddas burchidir.

Madaniyat tushunchasini izohlashga bag'ishlangan ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta'riflar soni 260 tadan oshib ketgan. Mualliflar bu tushunchaga xar biri o'z nuqtai nazaridan yondashdilar. Bunga sabab madaniyatning ko'p qirrali murakkab ma'naviy, ijtimoiy hodisaga egaligidir. Uning inson va jamiyat xayotidagi barcha qirralarini qamrab olganligidir. Madaniyatga berilgan ta'riflarda mualliflarning fikrlarini umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Shu jumladan, ularni umumlashtiradigan bo'lsak madaniyat - bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy xayoti sohasida yaratgan o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va o'zlashtirishdagi faoliyatini ifodalaydi. U inson aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir. Yuqorida aytilgandek, madaniyat juda murakkab ko'p qirrali ma'naviy-ijtimoiy xodisa bo'lib, ijtimoiy xayotning moddiy texnik iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarini, inson mehnati faoliyatining barcha samaralarini o'zida qamrab oladi.

Shuni aytish lozimki xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va madaniy -ma'naviy boyliklar madaniyatga kiradi.

Madaniyat deganda mehnat qurollarini yaratish va ulardan foydalanish, fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko'nikmalari, mehnatini ijtimoiy tashkil etish, salomatligini saqlash ishini yo'lga qo'yish, aholi o'rtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma'lumot, umumiy majburiy va oliy ta'limni amalga oshirish, adabiyot va san'at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy g'oyalar va shu kabilar nazarda tutiladi. Ko'rinadiki, madaniyat odamzod aql-idrokining eng yo'qsak cho'qqilargacha bo'lgan narsalarning hammasini qamrab oladi. U nafaqat inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas, shu bilan birga kishilarning mehnat jarayonida voqe' bo'ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatlari, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

Jamiyat moddiy ishlab chiqarishning ikki amaliy turi-moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat ham yirik ikki turga moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

Moddiy madaniyat deganda mehnat qurollarini, mehnat ko'nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnika, texnologiya, texnik inshootlar, ijtimoiy mehnatni uyushtirish shakli, qurilish va dehqonchilikni yo'lga qo'yish va boshqalar kiradi. Shularga qarab, moddiy madaniyatni bir qator turlarga bo'lamiz. Chunonchi, ishlab chiqarish va texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, mehnatni tashkil etish madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandalik madaniyati va boshqalar.

Madaniyatning ikkinchi turi bu - ma'naviy madaniyatdir. Ma'naviy madaniyatga insonning aqli va ma'nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma'naviy madaniyat fan, falsafa, san'at, adabiyot, axloq, din huquq, siyosat, maorif, ma'rifat va xakozolar yig'indisidan tashkil topgan insonning tashqi va ichki ma'naviyati, ruhiyati olamidir.

Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas xalq tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi, axloq odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi. Umuman, kishilik jamiyatini ma'naviyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat, inson bor ekan, u ma'naviyatga, madaniyatga ega, busiz bo'lishi mumkin emas.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o'zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mehnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aqli idrokisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zahirida ham ma'naviyat yotadi. Har qanday moddiy va ma'naviy

madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma'naviy madaniyat voqe'likni badiiy aks ettirish va o'zgartirish vositasidir.

Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari oila, maktab, oliygoh, korxona, tashkilotlar, muassasalardagi o'zaro munosabatlari ham kiradi.

O'qituvchi moddiy va ma'naviy madaniyat haqida so'zlar ekan, talabalar diqqatini umuman madaniyat, xususan ma'naviy madaniyatni rivojlanish qonuniyatlariga tortishi joizdir.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qoidalaridan biri uning to'xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiyat rivojlanib borishi madaniyat ham sifat jihatidan o'zgaradi. Bu degan so'z jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o'zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o'z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo'ldi.

Jamiyat taraqqiyotining har biri yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Shu o'rinda o'qituvchi talabalarga, har bir avlod o'zi uchun yangi moddiy baza tashkil etmasligini, ilm-fan va madaniyatni yangidan yaratmasligini, balki o'zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatdan asos sifatida foydalanishini aytib o'tishi lozim. Madaniyat umuminsoniy hodisa. U barchaga baravardir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me'morchilik durdonalari, fan- texnika yutuqlari, transport va aloqa vositalari barchaga tegishlidir. Xuddi shuningdek ma'naviy madaniyat ham milliy va umuminsoniy bo'ladi.

Milliy ma'naviyat, madaniyat tarixiy hodisa sifatida bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat tarixining ibtidosi asrlar qariga singib ketgan bo'lib, ularning necha

ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini bosib o'tganligini aniqlash bugun uchun anchayin murakkab muammo.

Boshqacha qilib aytganda burungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bulib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar hususan tibbiyot, matematika astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani ilmiy aqademiylar tashkil etilib, magribu mashriqqa nom taratganini eslasaq bundan har qancha gururlansaq arziydi. Endi ma'naviy meros va uning ma'naviyati rivojlanishidagi ba'zi jihatlarini bayon etamiz. Ma'naviy merosni izohlashdan oldin umuman sivilizatsiya, meros, xususan, madaniy meros, ma'naviy meros tushunchalarining nisbati, xususiyatlari, farqlarini bilib olishimiz zarur bo'ladi. Chunki ma'naviy meros umuman merosning xususan madaniy merosning tarkibiy qismi sanaladi. Madaniy merosni tushunmasdan ma'naviy merosni ham tushunish qiyin. Bu tushunchalarda umumiylik bo'lsa ham ular birday emas, o'zaro qaysi bir jihatlar xususiyatlari bilan farqlanadi. Ma'ruzaning oldingi masalasida ko'rganimizdek har bir jamiyat va davr o'z madaniyat tipiga ega bo'ladi. Jamiyat, davr o'zgarishi bilan uning madaniyati tipi va ma'naviyatida o'zgarish, yangilanish bo'ladi, ammo madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgari madaniyat sivilizatsiya yo'q bo'lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi.

Meros-insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroz farq qiladi. O'tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularni hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo'lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga ma'naviy yo'qsalishiga xizmat qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlar hisobga olinadi.

O'tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo'lavermaydi, chunki o'tmishdan qolgan

narsalarning hammasi ham qadriyat ahamiyatiga ega bo'lavermasligi hammamizga ma'lum. Masalan, sho'rolar davrida yaratilib uning siyosati, mafkurasini targ'ib etgan, endilikda o'z umrini yashab o'tgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati, ahamiyati yo'q. To'g'ri, ular meros, lekin, madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, madaniy meros deb – o'tmish avlodlardan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o'tgan saralangan insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin.

Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni meros sifatida qabul qilib oladi. Tarixiy vorislik - jamiyat va uning madaniyati ravnaqi shartidir. Ming afsuslar bo'lsinkim, sho'rolar davrida madaniy merosga to'g'ri munosabatda bo'linmadi. Boyu zamindorlarga, hokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi proletar (yo'qsil) madaniyatni yaratamiz degan shior ostida sobiq sovet ittifoqi xalqlarning, jumladan uzbek xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirishdi, saroylar, masjid va madrasalar buzib tashlandi, qarovsiz haroba holiga keltirildi, nodir asarlar yondirildi. Bu siyosat tufayli madaniy meros toptaldi.

Madaniy va ma'naviy meros o'zaro bir-biridan farq qilsa-da, ularni o'rtasiga o'tib bo'lmas Xitoy devorini qo'yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zahirida ham ma'naviyat ya'ni insonning ma'naviy ruhiy bilimlari qobiliyati, iste'dodi, aqli, empirik va nazariy bilim tajribalari, mehnat malakasi kabi boshqa ma'naviy faoliyatlari yotadi. Madaniy va ma'naviy meros o'rtasida umumiylik ham farqli tomonlar ham mavjud. Ayni paytda ular o'rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik bog'liqlik, o'zaro munosabat, ta'siri bor. Madaniy merosda ko'proq umumiylik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olsa ma'naviy meros ma'naviy

madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyat deyiladi. Ana endi asta sekin ma'naviy meros tushunchasiga yaqinlashmoqdamiz. Ma'naviy boyliklar avloddan -avlodga bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiyat uning ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy meros deb uzoq va yaqin o'tmishdagi hozirgi davrdagi ma'naviy jihatdan g'oyat qimmatli, o'chmas iz qoldiradigan mangu yashaydigan butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga ezigulik xizmat qiladigan umuminsoniy ma'naviy boyliklarga aytiladi. Ma'naviy meros, ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'lib, unga ilm- fan jumladan, falsafa, adabiyot, san'at, axloq, dindagi real, dunyoviy ta'limotlar, hurfiylik va boshqalar kiradi.

Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifatan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongini ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobini ezigulik sari yetaklaydi.

Ma'naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so'ng umuminsoniyatning ma'naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmish avlodlari qoldirgan ma'naviy meros bunga misol bo'la oladi. Ma'naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o'rinlardan birini egallaymiz. Prezidentimiz I.Karimov qayd etganidek, "Oллоhning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolatlik bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining ma'no-mazmuni nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash- odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o'z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yo'qsak ma'naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o'rinlidir"[5.,25-b]

Bularning hammasi Turon zaminida yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidirkim endi bu nodir ma'naviy merosimizni jiddiy o'rganish xalqimizga yetkazish davri keldi. Buning uchun

barcha imkoniyatlar mustaqil davlatimiz tomonidan bevosita Prezidentimiz I.Karimovning tashabbusi bilan yaratib berilmoqda. Bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun tarixchi, olim, adabiyotchi san'atkorlarimizdan, qo'yingki milliy- ma'naviyatimiz jonkuyarlaridan g'ayrat-shijoat, qunt bilan ishlash, izlanish talab etiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi katta bir xazina. Bu xazinadan mustaqilligimizni mustahkamlashda oqilona foydalanishimiz lozim. Qadimiy yozuvlar, bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, ulug' shoir va mutafakkirlarimiz yaratgan dunyoviy va badiiy asarlar, Qur'oni Karim, hadislar, Yassaviy va Boqirgoniylar yaratgan diniy axloqiy, pand-nasihat tipidagi asarlar, N.Qubro, Baxouddin Naqshbandiy yaratgan, inson ichki dunyosi, ruhiyatiga qaratilgan ta'limotlar. Navoiyning o'lmas badiiy ijod hazinasi va boshqalar bizning boy ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Ular inson ichki dunyosini ruhiyatini inchunun ma'naviyatni sayqal topishiga qaratilgan. Ularda insonlar ma'rifatga, ilm olishga, yo'qsak axloq-odobga, olijanob fazilatlarga yaxshilikka da'vat etiladi. Yomonlik, yovuzlik, qoralanish undan saqlanishga chaqiradigan pand-nasihatlar o'gitlar juda ko'p. Ular kishilarni ma'nan tarbiyalaydi.

Ma'naviyatsizlik, ma'naviyatdan mahrum bo'lish insonni o'g'irlik, yulg'uchlik, poraxo'rlik kabi illatlar sari yo'llaydi. Bundan Ollohning o'zi asrasin! Madaniyat, ma'naviy va madaniy meros, ma'naviyat rivoji insoniyat sivilizatsiyasi bilan bog'lanib ketadi. Ammo ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish ham to'g'ri bo'lmaydi. Sivilizatsiyaning o'zi insoniyatning madaniyati va ma'naviyati taraqqiyot bosqichlarida ro'y beruvchi sifat jihatidan yangi bosqichi bo'lib, kishilik jamiyati tarixida chuqur iz qoldiradi. Sivilizatsiya - ma'lum bir tarixiy bosqichda insoniyatning madaniyat taraqqiyotida yaratgan, erishgan, qo'lga kiritgan sifat jihatidan yangi, yuqori yutuqlari majmui.

3.Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning mavjud holati.

Yoshlar jamiyatning ijtimoiy tarkibida nisbatan mustaqil tuzilma bo'lib, umuman ijtimoiy tizimga xos qonuniyatlar unda muqarrar aksini topadi. Shu

bois yoshlar ijtimoiy guruhlarining hayot faoliyati xususiyatlarining tadqiqi ularning ahvolini, rolini va faoliyat turlarini jamiyat, o'z navbatida yoshlarga va ularning psixologiyasiga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy holatga doimo mos kelishi darkor.

Falsafiy yondashuv yoshlarning turli guruhlari ijtimoiy mansublik, mehnat xarakteri, yoshi, qiziqishlari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan o'z psixologik xususiyatlariga ega ekanliklarini hisobga olishni talab qiladi.

Bizningcha, yoshlarni o'quvchi yoshlar; ishchi yoshlar; qishloq yoshlari; ijodkor yoshlar singari asosiy kichik guruhlariga bo'lish mumkin.

O'quvchi yoshlar o'zining ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimidagi o'rnini, mashg'ulot turi hamda mehnat xarakteriga ko'ra o'ziga xos turmush ukladiga ega bo'lgan, yuqori sinflar o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalaridan iborat bo'lgan yoshlarning alohida ijtimoiy guruhini tashkil qiladi. Ularning jamiyatdagi ahvoli hamda ijtimoiy-iqtisodiy roli ancha keng. O'quvchi yoshlar psixologiyasiga, eng avvalo, bilimga intilish, hayotda o'z o'rnini topishga imkon beradigan muayyan ixtisosni, kasbni egallashga xosdir.

Yoshlarda xo'jalik mustaqilligi, tadbirkorlik va tashabbuskorlikning barqaror stereotiplarini, o'z imkoniyatlari hamda qobiliyatlariga tayanish xissini rivojlantirish bilan tavsiflanadigan hozirgi sharoitda o'z kasbkorini o'zi belgilashning ahamiyati ortib boradi, chunki u kishining shaxsiy hayotiga ta'sir qilibgina qolmay, balki turli ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa ijtimoiy qobiliyatlarni ham keltirib chiqaradi.

Pedagogika yo'nalishi bo'lajak ixtisosni tanlashni, mehnat faoliyatining xususiyati hamda uning mehnat taqsimoti tizimidagi o'rnini haqidagi tasavvurni, yangi ijtimoiy maqom kasb etishni, psixologiyaning, turmush tarzining o'zgarishini, yangi huquq hamda majburiyatlarning paydo bo'lishini o'z ichiga oladi.

Yoshlarning kasbkorini o'zi belgilashi muammosini tahlil qilish natijasida uning ijtimoiy va psixologik jihatdan ancha murakkabligi, bu

jarayonning ilk o`spirinlikdan boshlanib, bir necha yil davom etadigan ko`p bosqichli xarakteri aniqlanadi. Kasb yo`nalishi tor ishlab chiqarish xususiyatigagina emas, balki birmuncha keng ijtimoiy hamda axloqiy psixologik mazmunga ham ega, ya`ni har kim, birinchi navbatda, o`z salomatligidan, tabiiy va orttirilgan intellekt elementlaridan, qobiliyatidan, imkoniyatidan, mayllaridan hamda hayotiy maqsadlaridan kelib chiqib kasb tanlamog`i darkor.

O`quv jarayoni yoshlarda psixologik, axloqiy va kasbkor bilan bog`liq fazilatlarni tarbiyalashning asosiy bo`g`inidir.

Mavjud ta`lim tizimi tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarning asosiy elementlarini ijodiy egallash uchun katta imkoniyatlarga ega. Hozirgi sharoitda ta`lim va tarbiya sifatini oshirish uchun bir qator yirik ilmiy-metodik muammolarni hal qilish: o`quv jarayoniga o`qitishning zamonaviy texnika vositalarini hamda texnologiyalarini joriy etish zarur. Yoshlar ta`limi va tarbiyasida, ularda ijtimoiy psixologiyani shakllantirishda o`qituvchining shaxsiy fazilatlari, nazariy, metodik tayyorgarligi hamda axloqiy qiyofasi birinchi darajali ahamiyatga ega. O`qituvchi ijodkor, yo`qsak madaniyatli, g`amxo`r, e`tiborli va boshqalarga nisbatan mehribon, lekin g`oyaviy bahslarda murosasiz ziyoli kishi. U eng yangi ilm-fan, san`at, ijtimoiy hayot yutuqlaridan hamma vaqt boxabar, o`z bilimini oshirishga doimo intiladi, chunki o`qituvchi o`qib turar ekan, o`qituvchiligicha qoladi. Maktab o`quvchilari va talabalar g`oyaviy va axloqiy prinstipiallikni, o`z xalqiga, uning ideallariga sadoqatni uning shaxsiy namunasi asosida o`rganishlari darkor.

Jamiyatni isloh qilishning hozirga sharoitida yoshlarning bir hovuch faktlarni o`zlashtirishiga ishonib bo`lmaydi. Ularga o`z bilimlarini mustaqil to`ldira bilishni, o`z hayotini baholashni, hal qilishni va yo`lga qo`yishni, benihoya ko`p axborot oqimida mo`ljala ola bilishni, ongida professionalizm va bilimdonlikni mustahkamlashni, o`z tafakkuri asoslarini shakllantirishni o`rgatish muhim

Ta`lim o`qitilayotganlarga bilim beribgina qolmay, balki ularni ilmiy fikrlashga, tafakkurini rivojlantirishga o`rgatishi, ijodkorlikka intilishni yuzaga

keltirishi, ularning bilish faoliyatini faollashtirishi ham lozim.

O`quv jarayoni bo`lajak mutaxassis shakllanishining markaziy bo`g`ini hisoblanadi, lekin u yolg`iz bo`gin emas. U darsdan tashqari vaqtda maktablar, kollejlarda, oliy o`quv yurtlarining butun hayotini qamrab oladigan turli-tuman g`oyaviy - tarbiyaviy ishlar bilan to`ldiriladi.

Talabalar ziyolilar safini to`ldiruvchi asosiy kanal hisoblanadi. Shu bois ular sonining o`zgarishi dinamikasini, talabalar tarkibidagi turli ijtimoiy-kasbiy guruhlarining nisbatini, maxsus va ijtimoiy-axloqiy tayyorgarlik sifatini aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki ular ilmiy-texnikaviy rivojlanish, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot sur`atlari bilan bevosita bog`liq.

Ijtimoiy psixologiyani va ijtimoiy ongni shakllantirish — murakkab va notekis jarayon. U barcha ijtimoiy hodisalarni ularning kundalik hayot sharoitiga, his-tuyg`ularga hamda kayfiyatlariga ta`siri orqali tahlil qilishni talab etadi. Shuning uchun psixik hodisalar voqelikni aks ettirgani holda, inson xatti-harakatining boshqaruvchisi bo`lib xizmat qilishidek fundamental fakt ob`ektiv psixologik bilishning chinakam asosi bo`lib chiqadi. Psixik hodisalar bilan insonning zohiriy namoyon bo`lishini birlashtiruvchi aloqa ayni shundan iborat. Ularni ob`ektiv ilmiy tushunish metodi — psixik hodisalarni insonning ushbu psixik hodisalar bilan boshqariladigan xatti-harakatlari orqali bilish shunga asoslanadi.

Talabalar muhitida kundalik muloqot bo`lib turgan sharoitda shaxsning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari birmuncha shakllanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ishda talabalar muhitida tarkib topadigan, pedagoglar bilan talabalar o`rtasida, talabalarning jamoat, madaniy va ilmiy ishlarida ro`yobga chiqadigan mikro muhitga ta`sir ko`rsatish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq ta`limini tubdan isloh qilish jarayoni bormoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichma- bosqich bajarilmoqda va barcha darajadagi o`quv yurtlarining faoliyati tubdan qayta qurilmoqda. Barcha viloyatlarda ilmiy va o`quv dargohlari ochilib, ular istiqbolda ilm markaziga aylanishi mumkin. Yoshlarda mutlaqo yangicha yo`nalishlar,

jumladan, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya, xalqaro jurnalistika va iqtisodiyot, bozor munosabatlari hamda bilimning boshqa yo`nalishlari bo'yicha tayyorgarlik ko`rish imkoniyati yuzaga keldi.

Bozor munosabatlari kadrlarga nisbatan qattiq talablar qo`ygani bois respublika oliy o`quv yurtlariga tanlov qoidasi ham o`zgartirildi. Respublika oliy o`quv yurtlariga kirishda abituriyentlar test sinovlaridan o`tishadi.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o`tilishi natijasida yoshlarning mehnat va ijodiy qobiliyatlari namoyon bo`lishi uchun zarur sharoit yaratiladi. Bozor ishlab chiqaruvchining monopoliyasini tugatib, yoshlarning ulkan ijodiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta`minlashi mumkin.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo`lgan ma`naviyatga bog`liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma`naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

xalqimizning ma`naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

vatanparvarlik.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma`naviy yo`qsalishini ham taqozo etadi.

Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalariidan biri ham jamiyatda ma`naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma`naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilgor milliy, ma`naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma`naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma`naviyat (arabcha «ma`naviyat» - ma`nolar majmui) mohiyatiga ko`ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta`sir o`tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy,

axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi.

Jamiyat ma'naviyati uch muhim soha yo'nalishida amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllantiriladi:

Jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi omillar: jamiyat ma'naviyati, madaniyat, ma'rifat, mafkura.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat»[10.19,20-b].

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1.O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
- 3.O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuygu va hislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi.

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgalar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik,

xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman halok bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo'nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai-nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulki aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tikodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar

qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir hislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy hislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy hislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o'z nuqtaiy- nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuygularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- tarbiyalanuvchilarda yo'qsak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-sahovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy sifatlar – boshqalarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtata olish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonchli bo'lmagan hamda dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Arzimas bo'lib ko'ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatga ega bo'lish yo'lida zarurli bo'lgan bu kabi odatlardan holi bo'lishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish o'qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

I BOB XULOSASI

Pedagogik hodisa sifatida shaxsning ma'naviy madaniyatga ega bo'lishi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Shaxs oila, maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan ijtimoiy tarbiya negizida ma'naviy madaniyatning dastlabki unsurlarini o'zlashtiradi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida esa o'quvchilarda mavjud bo'lgan ma'naviy madaniyat unsurlari yanada rivojlantiriladi. Umumiy va kasbiy bilimlarni targ'ib etuvchi maxsus fanlarning ma'rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, sinfdan va ta'lim muassasalaridan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy

ta'siri, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining shaxs va mutaxassis sifatida kamolga yetishiga ta'sir etuvchi ijobiy mazmunga ega ijtimoiy omillardan samarali foydalanish bu borada kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish o'qituvchilarning yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lishlarini, ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligini hamda oilalar bilan mustahkam aloqaning o'rnatilganligiga ham bevosita bog'liqdir.

Muammoni nazariy jihatdan dastlab o'rganish pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish yo'lida muayyan to'siqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, pedagogika kollejlari o'qitiladigan turkum o'quv fanlari (mas., "Milliy istiqlol g'oyasi", "Ma'naviyat asoslari", "Konstitutsiya asoslari", "Huquqshunoslik", "Adabiyot", "O'zbekiston tarixi", "Axloqshunoslik", "Nafosatshunoslik", "Iqtisodiy bilim asoslari" kabi fanlar) mazmunida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, biroq, ular bilan ixtisoslik fanlari o'rtasida integratsiyaning qaror toptirilmaganligi; ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ko'p hollarda o'zaro izchillik va aloqadorlikning ta'minlanmaganligi; ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda ta'lim muassasalari bilan oilalar o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada mustahkam emasligi; ta'lim muassasalari tomonidan pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha oilalarga metodik yordam ko'rsatish sifatining pastligi; pedagogika kollejlari o'qituvchilarining o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid metodik ishlanmalar bilan ta'minlanmaganliklari kabi holatlar tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi.

Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi, axloq odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.

Umuman, kishilik jamiyatni ma'naviyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat, inson bor ekan, u ma'naviyatga, madaniyatga ega, busiz bo'lishi mumkin emas.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o'zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mehnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aqli idrokisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zahirida ham ma'naviyat yotadi. Ma'naviy madaniyat voqe'likni badiiy aks ettirish va o'zgartirish vositasidir. Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari oila, maktab, oliygoh, korxona, tashkilotlar, muassasalardagi o'zaro munosabatlari ham kiradi.

O'qituvchi moddiy va ma'naviy madaniyat haqida so'zlar ekan, talabalar diqqatini umuman madaniyat, xususan ma'naviy madaniyatni rivojlanish qonuniyatlariga tortishi joizdir.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qoidalaridan biri uning to'htovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiyat rivojlanib borishi madaniyat ham sifat jihatidan o'zgaradi. Bu degan so'z jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o'zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o'z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo'ldi.

Jamiyat taraqqiyotining har biri yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi.

II-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.

1. Sharq mutafakkirlari ijodida ma'naviy- axloqiy tushunchalarning yoritilishi .

Sharqning buyo'q mutafakkirlari va allomalari o'zlarinnng butun ijod faoliyatlarini shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratganlar desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lar edik. Aynan ana shu hususiyati bilan sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatlari g'arb mutafakkirlariniki bilan farqlanib turadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida mardlik, to'g'riso'zlik, ma'rifat bulog'idan bahramand bo'lish sari kuchli darajadagi intilish, mehnatsevarlik, katta yoshdagi kishilarga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, davlat va xalq manfaatlarini o'z manfaatidan ustun ko'rish, shuningdek sadoqatli sevgi-muhabbat kabi insoniy fazilatlar o'z ifodasini topgan bo'lib, shoir shu orqali shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish asoslarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Farhodga mamlakatni boshqarish imkoniyati berilganda,u o'zining hali ancha yosh ekanligini, bu borada hali tajribaga ega emasligini, bu ishni undan yoshi katta bo'lgan va davlat boshqaruvi bo'yicha ancha tajribaga ega bo'lgan kishilar qo'lga olsa yaxshi bo'lishini ta'kidlab bu taklifni qabul qilmaydi. Vaholanki, Farhod bu borada yaxshi ilm va mahoratga ega ekanligi bilan saroy ayonlari o'rtasida ham, oddiy xalq orasida ham yaxshigina shuhrat topgan edi. Shoir Farhodning ushbu xatti-harakati bilan quyidagi ma'naviy madaniyatni rivojlantiruvchi fazilatlarni ko'rsatib berishga harakat qilgan:

1. O'zini-o'zi baholay bilish va biror- bir yo'qlatilayotgan vazifa bo'yicha mas'uliyatni chuqur his qila bilish.

2. Biror-bir ish yuzasidan qaror qabul qilishda shoshmasdan uzoqni ko'rib harakat qilish.

3. Yoshi katta va tajribasi ko'p bo'lgan odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ular tajribasidan o'rnak olishga intilish.

4. Mansabparastlik illatidan o'zini yiroqda tutish.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'htalib o'tadi." [64.,72-b] Allomaning nuqtai- nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: matonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazokat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshok tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiradi.

Abdulla Avluniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g'azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamokat (o'zbilarmonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (ta'ma, hirs), rahovat (g'ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), g'iybat, haqorat, jibonat (qo'rqqoqlik), hasad, kizb (yolg'on), nifoq, ta'ma, zulm va boshqalar.

Yoshlar ta'limi to'g'risidagi o'z mulohazalarini ilmiy dalillar bilan asoslagan Behbudiy, yangilikka yuzaki qarovchilarni qattiq tanqid qiladi. Xalq ommasining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'tarish maqsadida hamma voqea-hodisalar, hatto kiyim-kechak ham, boshqacha aytganda, ijtimoiy hayot butunicha inson hayotiga, tarbiyasiga ta'sir ko'rsatib turishini Behbudiy alohida ta'kidlaydi"[41.,12-b]

O'quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo'lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o'quvchilarga xulq-odob me'yorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o'qish, kinofilm va spektakllarni tomosha qilish, maxsus tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilar o'zlari va boshkalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma'naviy-axloqiy mavzularda o'tkaziladigan suhbat va munozaralarda o'quvchini fikr yuritish, o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, «Do'stimiz Kamol qanday qilib narkomanlar davrasiga tushib koldi?», «Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?», «Zamonaviylik – bu nima?» kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o'quvchilarni o'ylash, fikr yuritishga yo'llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o'rganishga bo'lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o'z xatti-harakatlarini baholashga bo'lgan intilishlari va ishonchi, e'tiqodlari shakllanadi.

Debat, munozara va suhbatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag'ishlanishi zarur. Bunda o'quvchilarni qiziqtirish va ularni jonli muloqotga undash muhimdir.

O'quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o'rgatish, pedagogik talab qo'yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

Lekin o'quvchilarni faol, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etmasdan turib, axloqning biror turiga mos tarbiyalab bo'lmaydi. Bunda mashqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish asosida shaxsning u yoki bu axloqiy hislati shakllanadi va amaliy faoliyatga aylanadi.

Rag'batlantirish metodlariga mukofotlash va ma'qullash kiritiladi.

Bugungi kunda shartnomalar tuzish, o'z-o'zini shakllantirishga doir shaxsiy dasturlarni loyihalash, o'quvchilarni qiziqishlariga ko'ra tabaqalashtirish monitoringi, testlar, jarimalar (ball hisobida) kabi tarbiyaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Hozirgi davrda yoshlar o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan

“Zakovat”, “Intellectual ring”, “Qizlar davrasi”, “Uyla, izla, top!” kabi o'yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.

Bu borada tarbiya jarayonida o'quvchining axloqiy, ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samarali natijalar beradi. Bunday tarbiya o'quvchilarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch, axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglash, ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yo'llaydi.

Ayniqsa, bahslashish, ishontirish treninglarida o'quvchi-yoshlarning faolligi, liderlik sifatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'zgalar fikrini hurmat qilish, ishontirish, o'z fikrini asoslash, munozarada qatnashish mahorati paydo bo'ladi. Shuningdek, muloqot madaniyati, his-tuygularini jilovlay olish, fikr yuritish mahorati shakllanadi. O'z ishiga mas'uliyat hissini shakllantirib, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, ma'naviy-axloqiy tadbirlarni loyihalashtirish, ko'ngilochar, tashxisli, ishchan va harakatli o'yinlar, ziddiyatlarni hal etishning turli uslublari (tanqid usullari – ruhlantiruvchi, tanali, umidli, qiyosiy), rag'batlantiruvchi (tanqid, vaziyatni yumshatuvchi, gina, tanbeh beruvchi tanqid - ularning barchasini insonparvarlik g'oyalari asosida olib borish ijobiy natijalar beradi.

Shuningdek, sohibqiron Amir Temur bobomiz ham o'z tuzuklarida juda ko'plab tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan ko'rsatmalarni berib o'tgan.

Ayniqsa, u kishining davlat boshqarish faoliyatiga faqat va faqat adolat bilan yondashish kerakligi, ilm-ziyo ahliga doimo adolatli munosabatda bo'lish kerakligi, kambag'al fuqaroga doimo mehr-muruvvat ko'rsatish kerakligi va milliy qadriyatlarni barqaror tarzda himoya qilish kerakligi

to'g'risidagi fikr-mulohazalari bevosita ma'naviy madaniyatni shakllantirishda juda katta ahamiyatga egadir.

Odamzod paydo bo'libdiki, bir narsaga javob izlaydi: biz kimmiz, men kimman, atrofimdagilar kim? Biz nimalarni bilamizu, nimalarni bilmaymiz? Bilgan narsamiz bizga nima beryapti, nimaga muhtojmiz? Ehtiyojimiz nima va uni qanday qondirishimiz mumkin?

Bu savollarga ming yillar davomida javob qidirildi, qidirilmoqda. Insonni baxtli qilishning, uning og'irini yengil qilishning, odamzodni urushu qirg'in barotlardan, turli milliy, irqiy, siyosiy kelishmovchiliklardan asrab qolishning qanchadan-qancha yo'llari, konstepstiyalari, vositalari ishlab chiqildi, diniy, dunyoviy ta'limotlar yaratildi, dissertastiyalar himoya qilindi. Biroq shakshubhasiz, insoniyat taraqqiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan o'sha yangiliklaru ta'limotlarga qaramasdan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan uchinchi ming yillikning boshida ham urushlardan jabr ko'rayotgan, qiyinchiliklarga duchor bo'layotgan baxtsiz insonlar hali ham bor. Boz ustiga bunday illatlar yangi shakl va mazmunda yana paydo bo'lishi davom etmoqda.

Eng achinarlisi shundaki, ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati shunchalar dolzarb bo'lib bormoqda. Voqealar ummonida o'zini «yo'qotib qo'ymaslik» zarurati tobora kuchliroq sezilmoqda. Ana shunday sharoitda faqatgina o'z fikri, tafakkuri, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida rivojlantirishga harakat qilgan inson, xalqgina o'zini asrab qolishi mumkin. Qalbi xastalangan inson uchun jamiyat manfaatlari, milliy ehtiyojlarning hech bir qizig'i yo'q. Shuning uchun ham Sharqda doimo inson qalbining sofliги muqaddas hisoblangan. Mutafakkirlarimiz jismoniy o'limdan emas, qalb yarasidan, axloqiy qashshoqlanishdan qo'rqishgan.

Qalb, yurak, din va ilohiyat sof tushunchalar hisoblanadi. Qur'oni karimda «qalb» so'zi 133 marta uchraydi. Tustariy, Balxiy, Nuriy, Termiziy, G'azzoliy kabi allomalar fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo'lib, shu tufayli inson hatto farishtalardan ham yuqori turadi. Qalb narsalarning tub

mohiyatini ko'ra oladi, u inson xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, savob amallar uni nurga to'ldiradi, yomon amallar esa, aksincha, xiralashtiradi.

Demak, insonning tom ma'nodagi mavjudligi uning qalbida aks etadi. Qalbi nur, ezgulik, yaxshilik, go'zallik bilan to'lgan har qanday insonni mukammallikka intilgan, o'zini yaxshi insonga aylantirishga harakat qilayotgan shaxs sifatida tan olish mumkin.

Shu bilan birga go'zal inson, yaxshi shaxs tarbiyasi faqat uning qalbi bilangina belgilanmaydi. Qalb bilan bab-baravar aqlning o'zni ham juda katta. Aql eng ulug' ne'matlardan biri sanaladi va u insonni doimo anglash, fikrlash, mulohaza etish, tafakkur qilishga undaydi.

Masalaning eng muhim jihati shundaki, qalb, yurak, dil, aql bilan uyg'unlashgandagina u tom ma'noda insonga, insoniyatga xizmat qilishi mumkin, zero Arastu ta'kidlagani kabi "Aql dil go'zalligi bilan qo'shilsa fazilatga aylanadi, aks holda aql fazilat emas".[21.,197-b]

Insonda qalb va aql uyg'unligiga erishishning barkamol avlod tarbiyasidagi o'zni masalasiga Sharqda ayniqsa katta ahamiyat berilgan. Buyo'q mutafakkir Abu Homid Razzoliy o'zining «Kimyoi saodat» asarida inson tanasini shaharga o'xshatadi. Uning aytishicha qalb, dil — bu shaharning podshohi. Aql bu shahar podshohining vaziri. «Bunga o'xshash vaqtiki podshoh Dil vazir — Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g'azabni vazir Aqlning zerdasti va farmonida qilsa, badan mamlakati aning nizomida bo'lg'usidir. Va saodat yo'lini topib, Haq Taoloning ma'rifatini hosil qilg'usidir va agar Dil vazir Aqlni shahvat va g'azab iligida asir qilsa, badan mamlakati vayron bo'lib, podshoh Dil ham asir bo'lib, badbaxt va halok bo'lg'usidir»

Nazarimizda, qo'yilgan masalaga bundan ortiq izoh yo'q. Qalb bilan aql uyg'unlashgan joyda rivojlanish, yaxshilik, ezgulik, go'zallikka intilish bor. Qalb, dil va aql o'rtasidagi kelishmovchilik esa, barcha ziddiyatlar, nohaqliklar, adolatsizliklarning manbaidir. Shubhasiz, ushbu holatda qalb, dil, yurakning o'zni, ahamiyati kattadir.

Buyo'q allomalarimiz qayd etganlari kabi insonni, pirovard natijada

jamiyatni ma`rifat bulog`idan sug`orishning yo`li shaxsni ma`naviyat, ma`rifatga oshufta qilishdadir. Muammoga boshqacharoq munosabatda bo`ladigan bo`lsak, insonni va jamiyatni turli balo-qazolardan asrashning yagona yo`li qalbni davolash, uni sog`lomlashtirishdir.

Bu yo`lda mamlakatimizda mustaqillik yillarida misli ko`rilmagan katta hajmdagi ishlar bajarildi. Ma`naviyat, ma`rifat davlat siyosatining ustuvor yo`nalishiga aylandi. Muhimi, ushbu haqiqatning rasman e`lon qilinganida emas, balki bu narsaning fuqarolarimiz tomonidan e`tirof etib, tan olinganidadir. Madaniyatning maqsadi, ijtimoiy funksiyalari o`zgardi. Agar avval madaniyat davlatning, hukmron siyosiy mafkuraning imperiyachilik maqsadlarini amalga oshirish vositasi sanalgan bo`lsa, endi u insonning mukammalligini ta`minlovchi, millatni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, yagona milliy manfaatga xizmat qiluvchi hodisaga aylandi.

Natijada ma`naviy-ma`rifiy sohada fuqarolarimiz orzu qilgan kunlarga etdik. Milliy-madaniy, tarixiy merosimizni o`zimizga qaytarish imkoniga ega bo`ldik. Millatning mavjudligi uning madaniyatida aks etishi to`g`risidagi haqiqat tom ma`noda qaror toda boshladi. Milliy madaniyatimizning tiklana boshlashi bizning jahon maydonidagi o`rnimizni belgilashga ko`mak bera boshladi. Ushbu ijobiy jarayonlar silsilasida Yurtboshimizning «Bolalar musiqa va san`at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo`yicha 2009—2014 yillarga mo`ljallangan davlat dasturini tayyorlash choratadbirlari to`g`risida»gi farmoyishini alohida ta`kidlash lozim. Ta`bir joiz bo`lsa aytish kerakki, bu hujjat jamiyatni yanada ma`rifatparvarlashtirish, insoniy fazilatlarga ustuvor tavsif berish, inson qalbida ezgulik, yaxshilik, adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jiddiy qadamdir.

Milliy istiqlol g`oyasi bajaradigan yana bir muhim funksiya tarbiyaviy funksiyadir. Milliy g`oyaning bu funksiyasi globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda yana ham dolzarbroq ahamiyat kasb etadi. Globallashuv faqat iqtisod va siyosat sohasida emas, balki

ma'naviyat va mafkura sohasida ham jadallashib bormoqda. Aytish mumkinki, ma'naviyat va mafkura sohasidagi globallashuv boshqa sohalarga nisbatan jadalroq yuz bermoqda. Buning sababi o'z manfaatlarini ko'zlayotgan ba'zi davlatlar mamlakatimizga mafkuraviy jihatdan zararli va vayronkor ta'sir o'tkazishga urinayotganda har qanday xalqning ma'naviyati boshqa xalqlar ma'naviyatidan ajralgan holda rivojlanmaydi.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida asosiy vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etilmoqda, uning bag'rida shakllanishi lozim bo'lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo'ladi. Qanday yurtdoshimizni komil inson deb ataymiz. Eng avvalo otabobolarimizning ibratli yo'li biz uchun namunadir Binobarin, komillik bizga yot emas. Aytish mumkinki, O'zbekiston insoniy komillikning chuqur an'analariga ega bo'lgan o'lka. Tadqiqotchliarning, qayd etishicha, komillik odamni yo'qsaklikka ko'taradi, unga katta obro' va shuhrat keltiradi. Biroq shaxs yaxshi hunar sohibi bo'lsa, odob va axloq bobida qusurga yo'l qo'ysa, u, shubhasiz, obro' topa olmaydi.

Zamondoshlarimizning chuqur ilmiy dunvoqarashga, zamonaviy bilim va muayyan kasb bo'lishi sohasida uyg'unlikka erishishi O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi ruhiga singdirib yuborilganining boisi ana shunda.

Inson kamolotida jismoniy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan "sog'lom avlod dasturi»ning mazmuni shu bilan belgilanadi. Ayni vaqtda har bir inson o'zining salomatlik madaniyatini shakllantirmog'i va mukammallashtirmog'i lozim. «O'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik

qilib borish madaniyatini oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sport vositasida yoshlikdan singdirib borish kerak [13.,77-b.] Komillikning yana bir jihatı Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Prezidentimizning «elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak», degan da'vati negizida ana shunday buyo'q g'oya yotadi.

Inson kamolotida oilaning roli beqiyos katta ekanligi ma'lum. «O'zbeklarning aksariyati, — deb yozadi I. A. Karimov, — o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.[13.,47-b]

Ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi sog'lom fikr va oqslona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi yetuklik mezoni va shart-sharoitidir. Shunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Hakimdan baxtiyor kim?- deb so'radilar, U «uch narsaning uch narsa bilan, ya'ni fikrni to'g'rilik bilan, so'zni rostlik bilan, fe'lni saxovat bilan bezagan kishi baxtiyor, deb javob beradi.

Ulkan yunon faylasufi Suqrot o'z nasihatlaridan birida shunday deydi: Uch narsani barbod qilmaslik uchun uch narsani ehtiyot qiling berishdan ayrimaslik uchun tilingni saqla, namozdan ayrilmaslik uchun tahoratni saqla, yurakdan ayrilmaslik uchun g'azablanishdan ehtiyot bo'l.

Barkamollikning qirralari ko'p ekanligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mantiqiy fikrlashga o'rgatish hayot talabidir. Shunga ko'ra, unga har doim mantiqiy tafakkur yuritish tamoyillarini singdirib borish lozim.

Yoshlarni sog'lom fikrlashga, ayniqsa, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish zarur. Ba'zi bolalar yoshligidan boshlab «men» yoki «o'zim» deb fikr yuritadi.

Sharqona tarbiyada o'zining gapini, fikrini o'tkazishga intilish yoki manmanlik hamma vaqt ham qo'llab- quvvatlanmaydi. Ko'pincha, kattalar o'z fikrlarini o'zgarishga intiladilar, shunga qaramay mustaqil fikri bor odam odatda "fikrli" odam deyiladi.

Milliy o'zlikni anglash tushunchasining mohiyati haqida so'z ketganda, kommunistik mafkura milliy ravnaqni targ'ib qilmasdan, uni mavhum qilib umumiy tushunchalar bilan xalq ongini toraytirib qo'ydi. To'g'ri, o'sha mafkuraning dasturlarida ham «Vatan», «davlat», «mamlakat», «madaniyat» tushunchalari bo'lgan, ammo ularning mohiyati va mazmuni mahalliy xalq; uchun xizmat qilmagan. Aksincha, mahalliy xalqni inqirozga yo'liqtirgan.

O'z-o'zini anglash - bu o'z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o'tmishi, uning madaniyati, urf-odati, hamda qadriyatlarini bilishi demakdir.

O'z-o'zini anglash bu - o'z xalqining azaldan jahon hamjamiyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglashdir.

O'z-o'zini anglash bu-o'tgan ajdodlar tarixini mukammal bilish, ularning ruhlari hurmatini o'rniga qo'yish demakdir. Shu bilan birga o'z-o'zini anglash Vatan hududidagi boy madaniy va moddiy merosni aniqlab, porloq kelajak uchun xizmat qilishga intilish, avlodlar farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish hamdir. O'z-o'zini anglash faqat o'z tarixini bilish bilan cheklanib qolish degan so'z emas, O'zining zamonaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'z millati va Vatanining shuhratini oshirish hamdir.

Ma'lumki, xalqimiz uzoq o'tmishga ega. U o'z tarixida ko'pgina qiyinchiliklar, bosqinchiliklarga duchor bo'lgani bilan, shunday boy tarixiy meros qoldirganki, ularni anglash beixtiyor milliy g'ururni shakllantiradi.

O'rta Osiyoning markazi bo'lmish O'zbekiston dunyo tarixida o'chmas iz qoldirib kelayotir. Buni jahon xalqlari e'tirof etadi.

Masalan, O'zbekiston qadim zamonlardayoq; «Buyo'q Ipak yo'li» orqali G'arb va Sharqni porlashi uchun xizmat qilgan. U dunyo davlatchiligini rivojlantirishga, jahon madaniyatini ko'tarishga o'z hissasini qo'shgan. Shu sababli ham, bu yurtidan mag'rurlansak arziydi. O'zbekiston hududida qadimdan ko'p elat va millatlar yashagan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi do'stlik, totuvlik, barqarorlik insonlarni hayratda qoldirib kelgan. Demak, tarixiy birlikni, ularni qon-qarindoshligi bilan, ulardagi til, ona zaminning ma'naviy jihatlari yaqinligini, ulardagi muqaddas tuproq, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni anglash hozirgi avlod uchun ayniqsa dolzarbdir.

Gohida onda-sonda dunyoda bo'lib turgan kelishmovchiliklar, ziddiyatlarning oldini olishga bizning yurtimiz ma'naviy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda o'z-o'zini anglash bu - shaxsiy va mahalliychilik, urug'-aymoqchilik illatlarini yo'qotishga yordam beradi. Azaldan bir tan, bir jon bo'lib yashab, shu mamlakat ravnaqini ta'minlagan ajdodlarimizning turmush tarzi hozir ham yorqin misol bo'lib, hamkorlik qilishning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Milliy o'z-o'zlikni anglash natijasida o'z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O'z-o'zini anglash kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash uchun foydalaniladi, u mas'uliyatni oshiradi. Ajdodlar fidoiyligi, jonkuyarligidan xulosalar qilinadi.

O'z-o'zini anglash shunday bir noyob jarayonki, uning mohiyatiga yetish insonda bitmas-tuganmas mehr-muhabbat, shafqat, umumiy insonparvarlikni shakllantiradi. Insonlarda milliy anglash bo'lmasa, milliy manfaatlarni tushunish qiyin. Qachonki, milliy anglash yo'qsak bo'lgandagina kerakli vaqtda, ya'ni o'z millatining qadr-qimmatini pasaytirayotgan hodisa va harakatlar bo'lsa, uning ma'naviy va moddiy boyligiga zarar keltirsa, g'ururi

paymol etilaversa, o'shanda birlashish, ximoya qilish namoyon bo'ladi. Shunday paytlarda mamlakat ichkarisidagi muholifatlar ham yagona maqsad yo'lida birlashadilar.

Millatning o'z-o'zini anglashi, uning his-tuyg'ulari, irodalari, ruhlari, kayfiyatlarini o'zgartiradi, turmush tarziga ta'sir qiladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, o'z-o'zini anglash faqat o'z millatining manfaatini ximoya qilish bilan chegaralanmaydi. Balki, millat va mamlakat taraqqiyoti uning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi, mamlakatga, Vatanga oid turli voqealarni, ichki va tashqi jarayonlarni to'g'ri baholaydi, uning muammolarini hal etadi, ichki ma'naviy va moddiy zahiralarini ishga soladi, jamiyatning olg'a qarab siljishiga yordam beradi. Ana shu ma'noda, millatning o'z-o'zini anglashi millat uchun muhim belgi bo'lib, u milliy g'ururda kengroq o'z ifodasini topadi.

Davlat mustaqilligini mustahkamlash mamlakatda yashaydigan barcha aholi tabaqalari, ijtimoiy guruhlar, elat va millatlar o'rtasidagi munosabatlarning qandayligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Hozir Respublikamizda 80 dan ortiq milliy, madaniy markazlar ishlab turibdi. Ular o'rtasida hamkorlik, millatlar o'rtasida totuvlik bo'lmas ekan, davlat mustaqilligiga to'la erishish mushkul bo'ladi.

Ayniqsa, ko'p millatli davlatda bu jarayon muhimdir. O'zbekistonimizda 30-yillarda ellikdan ortiq millat va elat vakillari yashagan bo'lsa, endilikda ular 130 dan ortiqdir. Demak, bu hol davlatimiz mustadilligini mustahkamlash uchun yangi vazifalarni keltirib chiqaradiki, ularni juda ehtiyotkorlik va vazminlik bilan bajarishga intilish talab etiladi.

Sababi, yuqorida aytib o'tilgan toifalarning barchasi mamlakat mustaqilligi uchun u yoki bu darajada sa'y-harakatlar qiladilar, mamlakatni moddiy va ma'naviy boyitadilar. Zero, mustaqillikni mustahkamlashga harakat qilayotgan fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni

ma'naviy etuk qilib tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Shu sababli, taraqqiyotdagi boshqa yo'nalishlar bilan birga xalq manfaatini ifodalaydigan, ma'naviyatini boyitadigan milliy istiqlol mafkurasining yaratilishi zamon talabidir.

Milliy istiqlol mafkurasini endilikda hayotga tadbiq etilayotir. Bu mafkura va uning mazmuni to'g'risida matbuotda iliq so'zlar aytilayotganining guvohimiz. Shu sababli, biz mafkurada tilga olingan va ma'naviyatimizning eng muhim qirralaridan biri bo'lgan milliy g'ururni shakllantirishdagi omillar, uning iqtisodiy va ma'naviy jihatlari to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Prezident I.A.Karimov "O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida: "O'zbek xalqining yo'qsak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi, uining o'ta mehribonligi va sof vijdonlilikiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yo'qsaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston respublikasiga sadoqatli bo'lgan barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz", [4., 12-b]-deb ta'kidlagan edi. Bu so'zlarda juda chuqur ma'no bor. Sobiq ittifoq davrida "dunyoviy millat", "dunyoviy til", "dunyoviy madaniyat" kabi umumjahon maqsadlar asosida fikr yuritilganligi sababli milliy g'urur chetga chiqib qolavergan edi. Natijada, "yirik" millatlar soyasida boshqa millatlar g'ururi ravnaq topmadi. Chunki, mehnatkash xalq ongiga kundalik hayotimizdan uzoq fikrlar singdirilib kelindiki, bu jarayonda boshqa ba'zi xalqlar singari o'zbek xalqining ham milliy g'ururi toptaldi, qiyinchiliklarga duch keldi. Endilikda xalqimiz mustaqillik sharofati bilan, o'n yildirki, bu muhim jabhada qaddini rostlaymoqda.

Milliy g'urur to'g'risida so'z ketar ekan, bu masalaning nozikligini hech qachon unutmaslik zarur. U xasad bilan emas, balki, havas bilan yo'qsalmog'i kerak. G'urur to'g'risida turlicha fikr yuritgan

allomalar uning salbiy va ijobiy tomonlarini taroziga solib ish yuritishni uqtirganlar.

G'urur noyob va nozik jarayondir. Milliy mafkuraning har bir targ'ibotchisi va tinglovchisi mazkur fikrlardan tegishli hulosa chiqarib, masalaga jiddiy yondashishi va uni hayotga tadbiq etishi kerak.

Xalqimizning "G'ururi bor elning minorasi baland bo'ladi" degan ajoyib naqlidan kelib chiqsak, boshqa muhim jarayonlar singari milliy g'ururni ham shakllantirmay turib, O'zbekistonimiz mustaqilligi barqaror, uning kelajagi buyo'q bo'lishiga to'la erisha olmaymiz. Milliy g'urning shakllanishi va rivojlanishi ko'proq iqtisodiy sohaga, ya'ni to'qchilikka, moddiy noz-ne'matlarning yetarlicha to'kinligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu sababli, milliy istiqlol mafkurasini xalqqa singdirishning siyosiy tomonlaridan biri bu - iqtisodiy sohadir. Avvalo, el-yurt uchun etarli miqdorda, keyin esa eksportga yuboriladigan sifatli moddiy boyliklarni ishlab chiqarmasak, milliy g'ururimizni yo'qsak darajada ko'tara olmasligimiz tabiiydir.

Yetarlicha to'kin va sifatli mahsulot esa xalqimizning jo'shqin mehnati asosida yuzaga keladi. Bugun xalq, har bir fuqaro ongli mehnat qilgandagina, mahsulot sifati oshadi, miqdori ham ko'payadi. Jahon andozalari darajasidagi sifatli mahsulotni ishlab chiqarib, eksport qilish xalqimiz milliy g'ururini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Milliy mafkurani xalqqa singdirish uchun o'tkaziladigan har bir tadbir xo'ja ko'rsinga o'tkazilmasdan, balki, astoydil, vijdonan amalga oshrilishiga erishish kerak. Har bir ma'ruzachi dalillar asosida tinglovchining fikrlash qobiliyatini shu darajada uyushtishi kerakki, u iqtisodiyot sohasida bilimi yetarli bo'lmasa, beixtiyor bilim olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysin, ta'bir joiz bo'lsa, o'zligini iqtisodiy jihatdan ham anglashga harakat qilsin.

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini targ'ib qilish uchun targ'ibotchilarimizning hozirga qadar egallagan iqtisodiy bilimlari kamlik qiladi. Sababi, ko'pgina targ'ibotchilar keng ko'lamda ma'ruza qilib, barcha sohani umumiy jihatdan qamrab olishga harakat qilganlar. Natijada ma'ruza oldiga qo'yilgan maqsad ham mavhumlashgan. Shu sababi, ma'ruzalarga milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ma'ruzalar qisqa, mantiqan kuchli, g'oyadagi chizgilar hamda shiorlar asosida tuzilgan bo'lsa, samarali, ta'sirchan bo'ladi deb o'ylaymiz. Ma'lumotlarimiz umumiylikdan alohidalikka qarab yo'nalgan bo'lishi kerak.

Iqtisodiy soha bo'yicha milliy g'ururni shakllantirmish uchun yuqoridagi fikrlarni mustahkamlash maqsadida hozir mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta, ipak, qorako'l hamda paxtani qayta ishlash, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mashinalari, oltin, foydali qazilmalar, radiotexnika mahsulotlari va turli xalq iste'moli mollari, umuman, moddiy boyliklarimiz to'g'risidagi ilmiy asoslangan dalillar va ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Ishlab chiqarishimizning bu yetakchi sohalarini tilga olganda, ularni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslab gapirish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, milliy g'urur avvalo, iqtisodiy jihatdan o'z-o'zini anglashdan boshlanishi, har bir kishi iqtisodiy sohada ustuvor bilimga ega bo'lishi kerak. O'z-o'zini iqtisodiy jihatdan anglash, har bir kishidan o'z ustida qo'shimcha ishlashni, bilim doirasini kengaytirishni talab etadi. Albatta, o'z-o'zini anglash nafaqat iqtisodiy sohani bilish, balki o'z tarixini, ona tili, dini,avlod-ajdodlarini, milliy urf-odatlarini, axloqiy qarashlari, an'analari, o'z xalqinint dunyo madaniyatini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini va boshqa ko'plab jarayonlarni mukammal bilishni talab etadi. Binobarin, shu jarayonlarni har bir shaxs mukammal bilmas ekan, odatdagi muloqotda yoki chet mamlakat kishilari bilan suhbatlarda o'zining kim

ekanligini, avlodlari kimligini tanita olmaydi.

Ma'lumki, milliy g'urur insonning rangi, gavda tuzilishi, irqi, jinsi yoki diniga qarab belgilanmaydi. Milliy g'urni bu alomatlarga qarab belgilovchilar qattiq adashadilar, undaylar shovinistlardir. Aslida bunday kishilarning dunyoqarashi buzilgan bo'lib, bilim saviyasi sayozdir. O'zbek xalqi bunday qarashlarni o'ziga yot deb biladi, o'z milliy g'ururini millatning insonparvarlik hislatlaridan kelib chiqib yo'qsaltiradi. Islom va boshqa dinlarning bu sohadagi ijobiy tomonlariga e'tibor qiladi.

Iqtisodiy soha bilan bir qatorda milliy g'urni yanada yuqoriroq darajaga ko'tarishning ikkinchi muhim bir jihati - bu ma'naviy yetuklikni egallashga bog'liqdir. Jamiyatimizdagi kishilar o'z mutaxassisligi, ishlaydigan sohasini yaxshi bilishi mumkin. Lekin, ma'naviy yetuklik bo'lmasa, milliy g'urni ko'tarish, uni targ'ib qilish amrimaholdir. Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda ko'plab talabalar, tadbirkorlar, tuman, shahar, viloyat hokimliklari vakillari chet ellarga bormoqdalar. Kelajakda bu ish yanada rivojlanishiga aminmiz. Xorijga borayotgan har bir kishi o'z xalqining milliy g'ururi qirralarini mukammal bilishi zarur. Ayniqsa, hozirgi talabalarimiz milliy g'urni, uning qirralarini bilish bilan birga, uning targ'ibotchilari ham bo'lishlari kerak. Talabalarni targ'ibotchilar qilib yetishtirishni esa maktabda o'quvchilik davridan boshlash zarur. Maktab o'quvchilarini ko'pchiligi kelajak talabalardir. Mustahkam bilimni, ma'naviyat, qadriyat, urf-odatlar, udumlarni hamda allomalarimizning ta'limotlarini o'quvchilarga hozirdan keng dasturlar, puxta darslik va rejalar asosida tushuntirishni boshlash davr talabi. Zero, o'quvchilar talaba bo'lganlarida bu bilimlar ular uchun puxta zamin vazifasini o'taydi. Aynan shu bilimlar kelajak uchun bebaho ekanligi va milliy g'urni shakllantirishda ham o'ta muhim omil bo'lishi aniq.

Buning uchun ayniqsa, ijtimoiy fanlar o'qituvchilari, barcha murabbiylar mas'uliyatni his qilishlari, jonkuyar bo'lishlari lozim. Kelajakda chet mamlakatlarga borayotgan talabalar ham o'z zimmasiga katta mas'uliyatni olib, borgan mamlakati madaniyatini tezda o'ziga singdirib, o'z xalqi madaniyatini uyg'unlashtirish hamda o'z millatiga xos bo'lgan g'ururni o'rni bilan targ'ib qilishni o'ylab boradilar. Ma'lumki, xorijga qadam qo'ygan kishilarga e'tibor o'n karra oshadi. Salomlashish, muloqot qilish, mehmonhonada yashash, kiyinish, suhbat qilish, kishilarga munosabat, urf-odatlar barchasi hushyorlikni talab etadi. Afsuski, borgan kishilarning hammasi ham bularning o'ta muhimligiga xamisha e'tibor beravermaydi. Sir emaski, chetga borayotgan ba'zi sayyohlarimiz xorijga borganda kiyim-kechak, sovg'a buyumlariga diqqatni ko'proq qaratadilar, imkoniyat bo'lsa, o'sha buyumlardan ko'proq olib qaytishni o'ylaydilar. Milliy g'urur to'g'risida o'ylash esa, afsuski, yodimizdan ko'tarilar darajada bo'ladi. Axir biz, buyo'q jahongirlar, mo'tabar mutafakkirlar, ulug' allomalar avlodimizku! Ular timsolida o'zbek xalqining kim ekanligini, o'zbek xalqining jahon madaniyatiga, umuminsoniy qadriyatlarga qo'shgan ulkan hissasini endi dunyo ahli biladigan payt keldi-ku! Endilikda, barchamiz o'zbek xalqini dunyo ko'zi o'ngida yana bir pog'ona ko'tarishga harakat qilishimiz kerak emasmi? Milliy madaniyatimiz va axloqimizning mustahkam zaminga ega ekanligini endi olamga ko'rsatishimiz kerak emasmi?

Har bir targ'ibotchi bu voqea, hodisalarni hisobga olishi uchun uni ilmiy talqin qila bilishi lozim. Albatta, bular haqida fikr yuritish uchun ham chuqur bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Demak, "Odamdan yuqori turarkan olam, bilim olmoqlikka muhtojdir odam"-degan naqlga amal qilib, milliy istiqlol g'oyasini tinglovchiga singdirish uchun har bir targ'ibotchi o'z ustida ishlashi davr talabidir.

Yurtboshimizning milliy g'ururni tiklash maqsadida olib

borayotgan sa'y-harakatlari tahsinga loyiqdir. Prezidentimiz qayerga bormasin, u o'sha millatga yoki davlatdagi aholining o'zbek xalqiga bo'lgan hurmatini oshirib, o'zbekona milliy madaniyati va qadriyatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini yo'qsak darajada namoyish qilib qaytadi. Yurtboshimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi majlisida so'zlagan ilmiy amaliy nutqi to'g'risida ham dunyo matbuotida ko'p iliq so'zlar aytilganligining guvohimiz.

Sharq mutafakkirlari – Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Unsurul-Maoliy Qaykovus, Ahmad Yugnakiy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Muslihiddin Sa'diy, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, shuningdek, jadidchilik harakati vakillarining ko'plab asarlarida shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalasi alohida o'rin tutgan. Mazkur asarlar bilan tanishish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Komil insonni tarbiyalash masalasi Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan pedagogika oid asarlarning yetakchi mavzusi sanaladi.

2. SHarq mutafakkirlarining komil insonni shakllantirish va shaxs ma'naviyatini yo'qsaltirish borasidagi qarashlari zardushtiylik va islom dini ta'limotida o'z ifodasini topgan g'oyalar bilan o'zaro uyg'un.

3. Mutafakkirlar tomonidan yaratilgan komil inson qiyofasida iymon, bilimlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, sabr-toqat, atrofdagilar va tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat, o'zlikni anglash, ezgu ishlarni qilishga rag'bat kabi sifatlar o'z ifodasini topgan.

4. Sharq mutafakkirlarining qarashlariga ko'ra ma'naviy madaniyatga ega shaxs timsoli bo'lgan komil insonning shakllanishi uzoq muddatli, murakkab va dialektik jarayon hisoblanib, bunga doimiy ilm o'rganish, izlanish va o'zlikni anglab borish orqali erishiladi. So'fiylik ta'limotida bu jarayon "o'zlikdan kechish" tarzida ifodalangan.

5. Komillik inson shaxsini ulug'lovchi, uning qadrini yuqori ko'taruvchi muhim fazilat sifatida har bir shaxsda rivojlanishi zarur. Zero, bu fazilat

jamiyatda tinchlik va farovonlikni ta'minlash, aholi o'rtasida ahillik hamda o'zaro yordamni qaror toptirishga yordam beradi.

2. Darsdan tashqari sharoitda pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari.

Dunyo tobora globallashib borayotgan, barcha sohalarda integratsiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda jamiyatimizning ayrim fuqarolarida, ayniqsa, yoshlar ongida kuchli tafakkuriy o'zgarishlar sodir etish o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayrim yoshlarimizda egoizm, xudbinlik, jamiyat manfaatlariga bepisandlik kabi illatlarning mavjudligida g'arbning ta'siri kuchayib borayotganligini ham esdan chiqarmaslik muhim, deb o'ylaymiz.

Bunday murakkab sharoitda yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo'q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o'z ma'naviy qiyofasini boyitishga imkon beradigan sog'lom ehtiyojni shakllantirish o'ta zarurdir.

Sog'lom ma'naviy ehtiyoj inson qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to'ldiruvchi, uni yomon illatlardan himoya qiluvchi vosita hisoblanadi. Sog'lom ehtiyojni shakllantirish uchun esa, mavjud holatni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishimiz lozim. Bunday holatni aniqlash uchun esa, bizning nazarimizda, quyidagilarga e'tibor berish lozim.

Birinchidan, bugungi yoshlarimizning shaxs sifatidagi maqomida qaysi sifatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda: moddiy boylikmi, amalga o'tirishmi, bilim olishmi, umumiy madaniy saviyani oshirishmi?

Ikkinchidan, yaratilgan ma'naviy ne'matlar — badiiy asarlar, kinoteatr asarlari, ommaviy axborot vositalari nashrlari yoshlarimizning qiziqishlarini o'rgangan holda taklif etilyaptimi?

Uchinchidan, davlat, hokimiyatning turli pog'onalarida, ayniqsa, quyi pog'onalarida yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirish yo'lidagi faoliyat hozirgi kun talabiga javob bera oladimi?

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tabiatidan kelib chiqqan

holda jamiyatimiz fuqarolari madaniy saviyasini oshirishga ko'mak berish mumkin bo'lgan homiylik harakatidan qoniqish hosil qilish mumkinmi?

Jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda, shak - shubhasiz, yuqoridagi savollarga berilgan javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma'naviy ehtiyojini shakllantirish o'ta murakkab va ma'lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o'zini o'zi rivojlantirishga moyillik bo'lishi lozim. Bu esa, ko'proq oila, mahalla, o'qiyotgan yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo'lsak, jamiyatdagi o'rnatilgan va ibrat masalasiga bog'liq.

Insonning go'zal fazilatlari, uning muqaddasligini ifoda etuvchi asarlar bilan birga uni kamsituvchi, yerga uruvchi ayrim «asarlar»ning yuzaga kelishi, shubhasiz, fuqaro ma'naviy ehtiyojini bulg'arlashtiradi. Bosqinchilik, ur yiqit, zo'ravonlikni muntazam ravishda «tomosha qiluvchi», «o'qiydigan» kishidan nimani ham kutish mumkin? Sog'lom ma'naviyat yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni esa go'zal xulqli insonga aylanishini ifoda etuvchi ma'naviy boyliklar asosidagina shakllanishi mumkin.

Muammoning uchinchi jihati ham bor. Shu narsa ma'lumki, fuqaroda, pirovard natijada, millatda o'zga shaxs va millatning ma'naviy «boyliklari»ni o'zlashtirishga, ularni «qul» darajasiga ko'tarishga moyillik holatlari mavjud. Buning uchun, avvalo, o'sha shaxs yoki millat madaniyati boshqalar madaniy taraqqiyotidan sustroq bo'ladi. Bo'lak tomondan esa shaxs va jamiyatda o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan harakat kam bo'ladi.

Ammo, o'zbek xalqi o'z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida hurmat va e'zozga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Bu — e'tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongi shuriga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish mumkin.

Yurtboshimiz ta'kidlagani kabi, olib borayotgan targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo'naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko'rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi

va boshqa jihatlari e'tiborga olinib o'tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o'sha shaxsning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma'naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida tarbiya topishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, barkamol inson tarbiyasi, ayniqsa yoshlar qalbida yaxshilik, ezgulik, millat va Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakllantirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bemaqsad, samarasiz yuzlab tadbirlardan bitta ma'nili suhbat yoki muloqotning ko'proq nafi tegishi mumkin. Buni barchamiz bilamiz. Biroq, tadbirlarimizning besamarligiga yana bir boshqa sabab borgan o'xshaydi.

Gap fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ular qalbida yaxshilikka oshnolik sifatlarini uyg'otishda mavjud vaziyatni yaxshi anglab yeta olmayotganligimiz haqida ketyapti. Ushbu shartli «xarita»da yoshlarimizning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari o'z ifodasini topgan bo'lishi muhimdir. Masalan, qaysi yoshda Alisher Navoiyni qanday talqin qilish haqida o'ylamas ekanmiz va uni keksayu yoshga bir xil tarzda «targ'ib-tashviq» etarkanmiz, unday asar bir toifa odamga bir xil, boshqalariga esa tamomila o'zgacha ta'sir etishi mumkin.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Shakllanish jarayoni to'g'ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoga kirib qolish ehtimoli ko'p bo'ladi. Virtual dunyoda inson qalbida hali to'la anglab yetilmagan qandaydir g'ayriodatiy o'zgarishlar ro'y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahlil etiladi. Yana shu narsa ma'lumki, virtual dunyoda inson ma'naviy javobgarlikni xis etmaydi. Hattoki, mutaxassislarning ta'kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag'rida yaratilishi atom bombasining kashf etilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o'ylaymiz: birinchidan, undaylar o'zining mustaqil ma'naviy qiyofasiga ega emas. Natijada «chetda»gi narsalar uni o'ziga tortadi, asta-sekin real dunyodan oyog'i uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda

o`zini-o`zi rivojlantirishga ehtiyoj yo`q, shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo`yadi.

Yoshlarimizni virtual dunyoga tushib qolishdan asrash, ularning qalbini ezgulik, yaxshilik urug`lari bilan to`ldirish uchun, eng avvalo, bundaylarni margenllik holatidan chiqarish lozim. Margenallik — ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlamga mansub bo`lmasdan «chekkada», «oraliqda» qolishidir.

Boshqacha so`z bilan aytganda, margenallik holatida u yoki bu shaxs «arosatda» qolishi mumkin. Jamiyat, oila, mahalla ta`siridan «chiqish esa margenallik holatiga tushgan shaxsda beparvolik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy «xususiyatlari» jamiyat muammolariga e`tiborsizlik, sustlik, tevarak-atrofdagi voqea hodisalarga daxldorlik hissining susayishi, beqarorlikda ko`rinadi. Bundaylarning qalbi shikastlangan bo`ladi. Bunday shaxsning boshqalar ta`siriga tushish imkoniyatlari doimo yuqori bo`ladi. Ularning qalbini egallashda katta qiyinchilik sezilmaydi. Bu — jamiyat va millat uchun o`ta xavfli. Shuning uchun ham bizning ma`naviy-marifiy faoliyatimiz ayrim yoshlarimizda mavjud bo`lgan margenallik holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim. Barkamol inson tarbiyasi alohida olingan, aniq bir shaxs tarbiyasi tufayli sodir bo`ladi. Tarbiyada aniqlik zarur. Agar biz tarbiyalanuvchining qalbini poklay olsak, unga insonni sevish, hurmat qilish, e`zozlash urug`larini sepa olsak, shubhasiz, biz jamiyatning sog`lom ma`naviy qiyofasini yaratgan bo`lamiz, zero Sharqda doimo moddiy olamdan ruh olamiga ko`tarilish, qalbni tozalash insonning komillik sari tashlangan qadami sifatida baholangan.

Yoshlar ma`naviyati dabdurustdan shakllanadigan hodisa emas. Uning o`z evolyustion yo`li mavjud. Yoshlarimiz ma`naviy dunyoqarashini shakllantirishda ma`naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy va madaniy yodgorliklar muhim o`rin egallaydi. Qolaversa, diniy va dunyoviy olimlar, millatning xarakteri, uning salohiyati — bular ning bari yoshlarimiz ma`naviy dunyoqarashida muhim, hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Shu narsani g`urur bilan ta`kidlash lozimki, o`zbek milliy tarixi aslida madaniyat tarixidir.

Ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlarining tarixiy xotirani tiklash borasida olib borayotgan ishlari har qanday tahsinga loyiq. Uch ming yillik buyo`q milliy davlatchilik tariximiz yoshlarimiz uchun iftixor va vatanparvarlik omilidir. Ijtimoiy-tarixiy rivojlanishimizning har bir bosqichi xalqimizning mustaqillik, erk, ozodlik uchun yaratish va taraqqiyot sari harakat davri ekanligini ham anglab yetdik.

Eng muhimi, yoshlarimiz xaqli ravishda o`z tarixi, ota-bobolar tomonidan yaratilgan moddiy-ma`naviy boyliklardan faxrlanish huquqiga ega. Qulay geosiyosiy makonda joylashgan O`zbekiston hududida ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi ko`p omillarga bog`liq bo`lib, eng asosiysi bu yurtida xalq ilmiy ijodiy faoliyatining an`anaviy mavjudligi edi. Bundan tashqari, yurtimiz hududi qadim-qadimdan madaniyatlar, sivilizastiyalar uyg`unlashgan, «Buyo`q ipak yo`li» kesishgan, G`arb va Sharq aloqalarining muhim bo`g`ini edi. Bularning bari mamlakatimizda azaldan ilm-fan, madaniyat, san`atning, kishilik faoliyatining barcha jabhalari rivojlanganligini belgilab bergan edi.

Ana shunday buyo`q merosni o`rganish orqaligina tom ma`noda yoshlar ma`naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Bunday merosni esa faqat va faqat tarix orqali o`zlashtirish mumkin. Chunki bunday merosni o`rganmay turib, kishilik jamiyatida ildamlab borish mumkin emas. Tarix hamma narsaga chidaydi. Ammo o`zini soxtalashtirishga aslo chiday olmaydi. Darhaqiqat, tarixni, uning porloq, yorqin kunlari bilan birga zulmat va mustamlakachilik, ayriliq va yo`qotishlardan iborat davrlarini ham bilishimiz bizni turli balo-qazolardan asraydi, sergaklikka undaydi. Erishilgan yutuqlarni, porloq kunlarni eslash va faqat ulardan g`ururlanishning o`zi yetarli emas. Ayni paytda tariximizning qorong`i kunlarini ham esdan chiqarmaslik tarixiy xotira uchun o`ta zarurdir.

Yoshlarimiz mustaqillik o`zbek xalqi uchun kurashlar tarixi ekanligini anglar, uni qo`lga kiritish xalqimizning asriy orzusi bo`lganligini chuqur his etar

ekan, shundagina mustaqillikning tom ma'nodagi qadr-qimmatini, nufuzini tushunib yetishlari mumkin.

Qolaversa, xalq, ayniqsa, yoshlar tarixiy xotirasi millat ma'naviyatining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy xotirasi bo'sh xalq — kelajagi mavhum xalq. Tarixiy xotira va milliy ma'naviyat uyg'unligi kelajakni belgilab beruvchi, xalqni uyushtiruvchi, yagona maqsad ostida birlashtiruvchi kuchdir.

Millatimiz uzoq mustamlakachilik davrida og'ir qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Bizni turli baloyu qazolardan saqlab qolgan, yangi ezgu maqsadlar sari yetaklagan tuyg'u — tarixiy xotiradir. Biz o'z tariximizni o'rganishimiz, yutuqlardan faxrlanishimiz, yo'l qo'ygan xatolarimizni takrorlamasligimiz uchun ham tarixiy xotira zarur.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishda "Milliy istiqlol g'oyasi" va "Adabiyot" fanlari katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonini kuzatish va mazkur fanlarning o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish "Milliy istiqlol g'oyasi" va "Adabiyot" o'quv fanlari vositasida o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish imkoniyati mavjudligini tasdiqladi.

1. O'quvchilarni bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar mafkuraviy tahdidlar, shuningdek milliy istiqlol g'oyasining mohiyati, ularning ijtimoiy pedagogik ahamiyati to'grisidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish

2. O'quvchilarning badiiy asarlarning g'oyalari va badiiy qahromanlarning xatti-harakatlari, o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari va hayotiy intilishlari asosida ma'naviy madaniyatga ega bo'lish, ma'naviy jihatdan yo'qsalish ehtiyojini mustahkamlash.

3. Ularda ma'naviy madaniyat unsurlarini o'zlashtirish yo'lida amaliy harakat qilish, xususan, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini tanqid qilish kabi sifatlarni tarbiyalash malakalarini rivojlantirib borish.

4. O'quvchilarning mafkuraviy tahdidlar xavfi mavjud sharoitda g'oyaviy immunitet va tolerantlik sifatlariga ega bo'lishlariga erishish

Darsdan tashqari sharoitda pedagogika kollejlari tashkil etiluvchi

ma'naviy ma'rifiy ishlar ham o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. Tajriba davrida ularning imkoniyatlaridan to'g'ri maqsadga muvofiq va samarali foydalanish maqsadida ma'naviy madaniyatga ega bo'lish g'oyalarini targ'ib etuvchi ma'naviy ma'rifiy ishlarni quyidagi tamoyillarga ko'ra tashkil etilishi maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchilarni shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etish, shuningdek, ulardan ijtimoiy faollikni ta'minlash imkoniyatlarini yaratish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda insonparvarlik va o'zaro hurmat tuyg'ulariga asoslanish

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror topdirish

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda tegishli davlar va jamoat tashkilotlari hamda oilalar bilan mustahkam hamkorlikka erishish

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilgor ish tajribalariga tayanish, ma'naviy- ma'rifiy ishlarni tashkil etishda guruh rahbari sifatida dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida quyidagilarga e'tiborini jalb etmog'i zarur:

Tarbiya nazariyasi o'quv yurtida egallagan bilimlarni mustahkamlash va bilimlarini o'quvchilar bilan olib boriladigan darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda keng qo'llay bilishi;

Guruh rahbari sifatida maktab, akademik litsey hamda kollejlardagi tarbiyaviy ishlar tizimini har tomonlama o'rganish, darsdan tashqari turli ko'rinishdagi tarbiyaviy tadbirlarni kuzatish va tahlil qilish o'quv malakalarini takomillashtirish;

Guruh rahbari sifatida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tarbiyaviy vazifalarni aniqlash, ularni hal qilish usullarini to'g'ri tanlash va qo'llay bilish, o'quv malakalarini tarkib toptirish;

Guruh rahbari sifatida darsdan tashqari tarbiyaviy ish turlarini maqsadga muvofiq rejalashtira olish o'quv malakalarini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limiga oid qonunshunoslik hujjatlari va tarbiyaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy nazariy uslubiy adabiyotlarni o'rganish;

O'ziga biriktirilgan guruh o'quvchilarining shaxsiy hujjatlari, hujjatlar yig'ma jildini o'rganish, o'quvchilar, ularning ota-onalari va o'qituvchilar bilan suhbatlashish kabi tadqiqiy usullardan foydalanib, o'quvchilarga ruhiy pedagogik tavsiyanoma tuzish;

- O'quv yiliga mo'ljallagan tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish;
- Guruh rahbari sifatida litsey, kollejlarda turli xil tadbirlarni kuzatish va tahlil qilish;

- Guruh rahbari sifatida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning quyidagi turlarini bajarish:

- Guruh majlisi o'tkazish;
- Odob-axloq mavzusida munozara uyushtirish;
- Guruh soatlarini o'tkazish.

Milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar mavzusida tadbirlar (kechalar, anjumanlar) tayyorlash va o'tkazish;

- Mustaqil ochiq darslar o'tkazish;
- O'quvchilarni kasbga yo'llash va ularni biror turdagi ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish va unga rahbarlik qilish;

- O'quvchilar badiiy to'garagini tashkil etish;
- Sanoat yoki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar uyushtirish;

- Sport musobaqalari yoki kitobxonlar anjumaniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish;

Olimlar, yozuvchilar, urush yoki mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish;

- Guruh va o'quv yurtlarida devoriy gazetalarni tayyorlashda ko'maklashish;

- Yoshlar uyushmasi boshlang'ich jamoalari yig'ilishlarini o'tkazishga yordamlashish;

- Ota-onalar majlisiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish;

- Oila, ta'lim muassasalari, maktab va mahalla birligini taminlash maqsadida maktabga yaqin joylashgan mahallalarning ishlariga qatnashish. Aholi o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish;

Guruh rahbarlarining uslubiy birlashmasi yig'ilishida ta'lim muassasalari (maktab, litsey, kollej) pedagogika kengashida ishtirok etish;

II BOB XULOSASI

Ushbu mavzuda ma'naviy madaniyat va uning shakllanishining pedagogik xususiyatlari, shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishga yangicha yondashuv, sharq mutafakkirlari ijodida ma'naviy madaniyatni shakllantirish hamda ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi roli xususida ajoyib fikrlar bildirilgan. Ayniksa, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan va "Temur tuzuklari" dan keltirilgan misollar mavzuni tushunarli tarzda bayon etilishiga imkon yaratgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy g'ururni aholiga yanada chuqurroq singdirish va uni yo'qsak darajasiga ko'tarish uchun katta kuch-g'ayrat sarflash lozim bo'ladi. Bu ish eskirgan shiorlar, dabdabali yig'ilishlar, haybarakallachilik bilan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar orqali bo'lmaydi. Bu bilan kerakli natijaga erishish qiyin. Xalqimizda shunday udumlar, urf-odatlar borki, ular milliy g'ururni rivojlantirishga juda qo'l keladi.

Milliy istiqlol g'oyasi bilan bu vazifa mushtarak bo'lsa jamiyatimiz rivojlanishi, taraqqiy etishi tezlashadi. Ayniqsa, tinglovchilar va talabalar bilan ish olib borish mobaynida milliy istiqlol g'oyasining demokratik jarayonlar bilan chambarchas bog'langan jiddiy tushuntirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolar

faoliyatiga ham bog'liqdir. Fuqarolar jamiyatdagi turli sohadagi xodimlardir. Taraqqiyotni esa shu xodimlar harakatga keltiradi. Xodimlarda milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi hamda huquqiy madaniyat va burch, mas'uliyat birlashmasi jamiyatning olg'a qarab siljishi murakkab kechadi. Chunki, erkin shaxsni tarbiyalash bozor munosabatlari bilan ham bog'liqdir. O'z navbatida bozor munosabatlari yangi ijtimoiy munosabatlarni paydo qiladi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishda "Milliy istiqlol g'oyasi" va "Adabiyot" fanlari katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonini kuzatish va mazkur fanlarning o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish "Milliy istiqlol g'oyasi" va "Adabiyot" o'quv fanlari vositasida o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish imkoniyati mavjudligini tasdiqladi.

1. O'quvchilarni bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar mafkuraviy tahdidlar, shuningdek milliy istiqlol g'oyasining mohiyati, ularning ijtimoiy pedagogik ahamiyati to'grisidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish

2. O'quvchilarning badiiy asarlarning g'oyalari va badiiy qahromanlarning xatti-harakatlari, o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari va hayotiy intilishlari asosida ma'naviy madaniyatga ega bo'lish, ma'naviy jihatdan yo'qsalish ehtiyojini mustahkamlash.

3. Ularda ma'naviy madaniyat unsurlarini o'zlashtirish yo'lida amaliy harakat qilish, xususan, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini tanqid qilish kabi sifatlarni tarbiyalash malakalarini rivojlantirib borish.

4. O'quvchilarning mafkuraviy tahdidlar xavfi mavjud sharoitda g'oyaviy immunitet va tolerantlik sifatlariga ega bo'lishlariga erishish

III-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI.

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid tajriba- sinov ishlarining mohiyati.

Ma'naviy barkamol inson tushunchasining o'zi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson - komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsada, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Mustaqillikka erishib, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog'lom avlod, ma'naviy barkamol inson, komil inson kabi tushunchalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. YUqorida aytganimizdek ular mohiyati birday tushunchalar. Insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo'yingki, yo'qsak axloqlilikka yo'llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Ƴozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi - iymoni, e'tiqodi va axloqiy fazilatlari - qo'yingchi, ma'naviyati kuchli, milliy mas'uliyat to'yg'usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma'naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyo'q kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi. Boshqacha aytganda ma'naviy barkamol insonlarga buyo'q kelajakni yarata oladilar. SHuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala. Bu masalada yurtboshimizning qo'yidagi sabog'i ibratlidir: «Biz sog'lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki SHarqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol

topgan insonni tushunamiz» Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, SHarqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yo'qsak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, hulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Sog'lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma'rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog'imiz kerak. Bunday kishilar o'zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari - iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yo'qsak Vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g'oyalarni mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim.

Prezidentimiz erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson haqida gapirib, quyidagi to'rt jihatga e'tiborni qaratdi, ya'ni har bir fuqaro:

- o'z haq-huququni taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin;
- atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;
- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritsin.[7.,232-233-b]

Bular barkamol inson fazilatlari haqidagi aniq va to'liq ta'rifdir.

Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, hullas butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'urish; tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo'lganligi singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishi; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli

qilishni insoniy burch deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash; milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, bironing og'irini engil qilishni odat qilish; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish; va'daga vafoli bo'lish va boshqalar kiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralaridan biri milliy iftihordir. Milliy g'urur bu milliy iftihordir. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlarini, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yo'qsak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan fahrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi. Bunday kishilarni ma'naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Asoslovchi tajriba davrida pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning nazariya va amaliyotdagi holati o'rganildi. Nazariy o'rganish pedagogika kollejlari o'qituvchilarining G'.As-salom, V.Gumboldt, N.Jo'raev, SH.Jabborov, Y.J.Jumaboev, M.Z.Zaripov, A.Ibrohimov, M.Imomnazarov, M.Ismoilov, Z.Ismoilova, I.A.Karimov, O.Musurmonova, Q.Nazarov, B.Norboev, S.Nosirho'jaev, S.Otamurodov, S.Ochil, O.Sultonmurod, J.T.Tulenov, M.Usmonov, H.O.SHayhonova, O.SHarofiddinov, A.Erkaev, E.YU.YUusupov, O.Qoriev, M.Quronov, Z.G'afurov va boshqalarning ma'naviy madaniyat va shaxsda ma'naviy

madaniyatni shakllantirish masalasiga oid asarlari bilan qurollanganliklarini tasdiqladi.

Tajriba – sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilarning aksariyati ma'naviy madaniyat to'g'risidagi bilim hamda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega ekanliklarini namoyon etdilar. Biroq ularning faoliyatini bevosita kuzatish pedagogika kollejlarda ma'naviy madaniyatni tashkil etishda muayyan kamchiliklarga ham yo'l qo'yilayotganligidan guvohlik berdi.

Ular quyidagilardir:

- o'qituvchilarning aksariyat qismi “ma'naviy –axloqiy tarbiya” va “ma'naviy madaniyat” tushunchalarining mohiyatini to'la anglamaydilar;
- bir guruh o'qituvchilar o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga yo'niltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq maqsad va puhta ishlangan loyihalarsiz tashkil etishlari sababli ularning samaradorligi past;
- sinfdan va darsdan tashqari sharoitlarda tadbirlarni uyushtirishda o'quvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqish va hohishlari deyarli inobatga olinmaydi;
- pedagogika kollejlarining o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish borasida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligida izchillik etishmaydi;
- ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchilarda tolerantlik va g'oyaviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi manbalardan samarali foylanilmaydi va boshqalar.

Shakllantiruvchi tajriba davrida mazkur kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi, o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, diniy (hadislar), metodik va badiiy adabiyotlar to'g'risida ma'lumotnoma tayyorlanib, o'quvchilarga yetkazildi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlarni ishlab chiqishga tadqiqotimiz davomida asosiy e'tibor qaratildi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish jarayoni:

-ta'sir etuvchi omillar

-ta'lim jarayoni ("Milliy istiqlol g'oyasi " va "Adabiyot" fanlari)

-Ijtimoiy-tarbiyaviy omillar(davlat siyosati,jamiat ma'naviy madaniyati, ijtimoiy hamkorlik,ijodiy va ijtimoiy faollikning rag'batlantirilishi, ta'lim sharoitining yaratilganligi va hokazolar)

-Ma'naviy-ma'rifiy ishlar (kecha, uchrashuv, suhbat,tanlov,viktorina,amaliy trening, namoyish, ekskursiya,sayohat)

Ustivor tamoyillar

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda ijtimoiy faollikni ta'minlash imkoniyatini yaratish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda insonparvarlik va o'zaro hurmat tuyg'ulariga asoslanish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror topdirish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda tegishli davlat va jamoat tashkilotlari hamda oilalar bilan mustahkam hamkorlikka erishish.

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilg'or ish tajribalariga tayanish.

Ma'naviy madaniyatga egalik (ma'naviy-axloqiy sifatlar)

Bilimlilik, axloqlilik, odob, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, tolerantlik, ruhiy tetiklik, sabr-toqatlilik, kamtarlik,mehnatsevarlik, irodali bo'lish,ijtimoiy-g'oyaviy, huquqiy,siyosiy,axloqiy, estetik,ekologik,iqtisodiy va gigienik tushunchalarning yetarli darajada o'zlashtirish, jins sifatida hamda jismoniy jihatdan to'g'ri shakllanish yo'lida amaliy amaliy harakatlarni tashkil etish, o'zgalarni hurmat qilish, ularning haq-huquqlarini kamsitmaslik, muruvvatli, rahmdil, sadolatli va hunarli bo'lish,tadbirkorlik faoliyatini tashkil

etish ko'nikmalarini o'zlashtirganlik, tabiat va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, gigienik qoidalariga so'zsiz rioya qilish, go'zallikni his qilish va sevishtirish, jismoniy yetuk bo'lish va hokazolar.

2. Tajriba- sinov ishlarining samaradorlik darajasi qiyosiy va statistik tahlili.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid tajriba sinov ishlarini mohiyati ochib berildi hamda tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi qiyosiy va statistik tahlil asosida o'rganildi. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid tajriba sinov ishlarini Xiva pedagogika kolleji, Xonqa pedagogika kollejlari olib borildi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Izlanishlar natijasi quyidagi mezonlarning o'quvchilarda ma'naviy madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholay olishini tasdiqladi:

O'quvchilarning ma'naviy axloqiy tushunchalar mohiyatini chuqur anglashlari

O'quvchilarning ma'naviy madaniyat unsurlari bo'lgan axloqiy sifatlarga egaliklari

O'quvchilarning mavjud ma'naviy axloqiy sifatlari (mas., irodani mustahkamlash, qat'iy qarorga ega bo'lish, g'oyaviy immunitetni shakllantirish, ruhiy tetiklikni qaror toptirish, atrofdagilarga e'tiborli bo'lish va ularning ichki kechinmalarini anglay olish, yordamga muhtojlarga muruvvat ko'rsatish va hokozalar)ni boyitishga bo'lgan ehtiyojlarga egaliklari.

O'quvchilar tomonidan mavjud ma'naviy axloqiy sifatlarning boyitilishi yo'lida amaliy harakatlar (jumladan, o'z ustida izlanish dunyoqarashni boyitish maqsadida ilmiy, ommabob va badiiy asarlar, shuningdek, davriy nashrlar bilan tanishib borish, milliy qadriyatlar mohiyatini chuqur anglashga intilish va hokozalar)ning tashkil etilishi

O'quvchilar ruhiyatining tetikligi, ularda kelajakka bo'lgan ishonchning

mavjudligi, fikr, soʻz va faoliyatda ezgu gʻoyalarga tayanib ish koʻrinishlari, salbiy illatlar (yovuzlik, buzgunchilik, tuhmat, xarom luqma va boshqalar)dan nafratlanishlari

Tajriba sinov ishlari uch bosqichda tashkil etilib, ularda jami 124 ta (asoslovchi tajriba davrida 120 ta (tajriba guruhida-54 nazorat guruhida-66), tasdiqlovchi tajriba davrida 124 (tajriba guruhida-60 nazorat guruhida-64) nafar oʻquvchi qatnashdi. Har bir bosqich natijalari tahlil etib borildi. Yakuniy bosqichda esa ular oʻzaro qiyoslandi.

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarini natijalariga koʻra nazariy va amaliy bilim darajalari samarali natija berdi. Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat koʻrsatkichlari hisoblandi. Bunda oʻquvchilarning maʼnaviy qadriyatlarga intilish boʻyicha sifat koʻrsatkichlari yuqori ekanligi aniqlandi.

Shuningdek oʻquvchilarda maʼnaviy madaniyatning shakllanganlik koʻrsatkichlari oshganligi aniqlandi.

Olingan natijalardan oʻqitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligini koʻrish mumkin.

Ishda ilgari surilgan nazariy gʻoya va muhim amaliy natijalarga tayangan holda umumiy xulosalarga kelindi. Xulosalar mazkur jarayonda yanada yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

1. Pedagogika kollejlarning ixtisoslik yoʻnalishlaridan kelib chiqib, mutahassislik fanlari imkoniyatlarini inobatga olgan holda oʻquvchilarning maʼnaviy madaniyatini rivojlantirishga oid turkum manbalarni yaratish.

2. Pedagogika kollejlari oʻquvchilarining maʼnaviy madaniyatini izchil rivojlantirish maqsadida taʼlim muassasalarida bu borada toʻplangan tajribalarni umumlashtirib borish.

3. Pedagogika kollejlari oʻquvchilarining maʼnaviy madaniyatini rivojlantirishga oid tajribalarni ommalashtirish maqsadida pedagogik oʻquv va

amaliy seminarlarni tashkil etish.

4. Pedagogika kollejarining o'qituvchilari o'rtasida "Bo'lajak o'ituvchining ma'naviy qiyofasi" nomli ijodiy loyihalar tanlovini tashkil etish.

5. "Ma'naviyat asoslari" o'quv fani mundarijasidan "Ma'naviy madaniyat va uning tarkibiy unsurlari" mavzusining o'rin olishiga erishish.

6. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini samarali rivojlantirish maqsadida turkum o'quv fanlari o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ta'minlash.

7. Pedagogika kollejlari o'quvchilarini shaxs ma'naviy madaniyatini boyitishda katta imkoniyatlarga ega milliy meros namunalari bilan bevosita tanishtirib borish, shu maqsadda ekskursiya va sayohatlar uyushtirish.

III BOB XULOSASI

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralaridan biri milliy iftixordir. Milliy g'urur bu milliy iftixordir. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlar, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yo'qsak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

Asoslovchi tajriba davrida pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning nazariya va amaliyotdagi holati o'rganildi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlarini mohiyati ochib berildi hamda tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi qiyosiy va statistik tahlil asosida o'rganildi. Pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlarini Xiva pedagogika kolleji, Xonqa pedagogika kollejlari olib borildi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida pedagogika kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Izlanishlar natijasi o'quvchilarda ma'naviy madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholay olishini tasdiqladi. Shuningdek

o'quvchilarda ma'naviy madaniyatning shakllanganlik ko'rsatkichlari oshganligi aniqlandi.

Ishda ilgari surilgan nazariy g'oya va muhim amaliy natijalarga tayangan holda umumiy xulosalarga kelindi. Xulosalar mazkur jarayonda yanada yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

XULOSALAR

1. Pedagogika kollejlari tashkil etiluvchi ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuniga milliy axloqiy qadriyatlar, shuningdek, milliy g'oya va mafkura tamoyillarini singdirish orqali o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish ularning har tomonlama etuk bo'lib voyaga etishlarini ta'minlaydi.

2. Nazariy o'rganish sobiq Ittifoqi davrida "ma'naviyat" ilohiy mazmunni ifodalovchi tushuncha sifatida qabul kilinib, mavjud siyosat mohiyatiga mos kelmasligi sababli iste'molda qo'llanilmay kelinganligini ko'rsatdi.

3. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida ma'naviyat jamiyatning rivojlanganligi hamda shaxsning etukligini belgilovchi mezon sifatida e'tirof qilinib, uning mohiyatini ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va pedagogik nuqtai nazardan o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratildi. Globallashuv va ahborot-aloqa almashuv jarayoni tobora tezlashayotgan bir vaziyatda uzluksiz ta'lim tizimida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish o'ziga hos dolzarblik kasb etdi.

4. O'rta mahsus ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch – malakali mutahassislarni tayyorlashda mas'uliyatli bosqich ekanligi pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish masalasining mustaqil tadqiqot sifatida o'rganishni taqozo etdi.

5. Ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuniga milliy qadriyatlar mazmuni, SHarq mutafakkirlarining qarashlari va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan ma'naviy madaniyat mohiyati to'g'risidagi g'oyalarni singdirish va bu jarayonning texnologik yondashuvga muvofiq tashkil etilishi kutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

6. Pedagogika kollejlari ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayoni o'rtasida o'zaro integratsiyaga erishish o'quvchilarning ma'naviy madaniyatni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

7. Pedagogika kollejlari o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida o'quvchilarning shaxs ma'naviyati va uni rivojlantirish to'g'risidagi nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni

yanada boyitish orqali pedagogik mahoratlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

8. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining mavjud ma'naviy madaniyatini ular tomonidan egallanayotgan ihtisoslik bo'yicha kasbiy sifatlar bilan boyitish etuk, malakali mutahassislarni samarali tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

9. Tajriba-sinov ishlari natijalari pedagogika kollejlarda o'qitiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi",. "Ma'naviyat asoslari", "Huquqshunoslik", "Adabiyot", "O'zbekiston tarixi", "Axloqshunoslik", "Nafosatshunoslik" va "Iqtisodiy bilimlar asoslari" kabi o'quv fanlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik va uzviylikni ta'minlash o'quvchilarda mavjud ma'naviy-axloqiy sifatlarini boyitishga bo'lgan ichki ehtiyojni yuzaga keltirishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 1992.46-bet
2. O'zbekiston Respublikasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi «Mustahkam oila» Davlat dasturi. Toshkent. 2012.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. -T., «O'zbekiston», 1992, 80-bet.
5. Karimov I.A. Yo'qsak ma'naviyat –yengilmas kuch. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2008. 176-bet.
6. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q - Muloqat.1998, 5-son, 32-bet.
7. Qarang. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, «O'zbekiston», 2000 y. 457-bet.
8. I.A.Karimov.O'zbekiston:milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura.T:1999yil 79-bet
9. I.A.Karimov.Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq,millatni millat qilishga xizmat etsin.328-bet
- 10.Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 1999 y.342-bet.
- 11.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2000. 528-bet.
- 12.Karimov I.A.. O'zbekiston - kelajagi buyo'q davlat. -T., «O'zbekiston», 1992.92-bet
- 13.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. -T., «O'zbekiston», 1993. 352-bet
- 14.Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'li. -T., «O'zbekiston» 1993. 86-bet
- 15.Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay. -T., «O'zbekiston», 1993. 112-bet

- 16.Karimov I.A. Buyo'q maqsad yo'ldan og'ishmaylik. -T., «O'zbekiston», 1993. 48-bet
 - 17.Karimov I.A. Yo'limiz - mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li. -T., «O'zbekiston», 1994. 278-bet
 - 18.Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezonini bo'lsin. -T., «O'zbekiston», 1994.136-bet
 19. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik. -T., «O'zbekiston», 1994. 386-bet
 20. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T., O'zbekiston», 1994. 297-bet
 - 21.Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -T., «O'zbekiston», 1994.374-bet
- Darslik va o'quv qo'llanmalar
- 22.Atayeva N.Rasulova F.Salayeva M. Hasanov S “Umumiy pedagogika” –T: Fan va texnologiyalar – 2012 yil. 756-bet
 - 23..Pedagogika «Bilim» jamiyati, -T., 1989, 53-bet.
 - 24.Pedagogika (A.Q.Munavvarovning tahriri ostida). -T.: O'qituvchi, 1996.423-bet
 - 25.O'zbek pedagogikasi tarixi. (Tuzuvchi muallif, prof. A. Zunnunov)-T.: “O'qituvchi”, 1997.186-bet
 26. Hasanboeva O va boshqalar. Oila pedagogikasi. -T., “Aloqachi” 2007.132-bet
 27. Musurmonova O, Baubekova Z. “O'zbek xalq pedagogikasi “ –T 2000yil.197-bet
 28. E.Bobomurodov, SH.Bobomurodova “O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy psixologiyasi” Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2010 yil 106-bet
 29. R.Mavlonova, O, To'raeva, K. Holiqberdiev “Pedagogika “ Toshkent 2001 yil.175-bet
 30. Volkov G.N., Baubekova Z.D. Etnopedagogika. T., 2000.140-bet
 31. Ziyomammedov B., Abdullaeva SH. “Pedagogika”. T., 2000.180-bet

32. Podlasiy I.P. Pedagogika v 2-h chastyah. M., Vldos, 2000.84-bet
33. Hasanboev J., Usmonboeva M. “Pedagogika nazariyasi”. T., 2000.124-bet
34. O'zbek xalq pedagogikasi antologiyasi. T., “O'qituvchi” K.Hoshimov tahriri ostida, 2001.352-bet

Qo'shimcha adabiyotlar

- 35.Abul-Qosim Mahmud az-Zamahshariy. Nozik iboralar (sharhlar muallifi va tarjimon U.Uvatov). -T., Kamalak, 1992. 87-bet
- 36.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. T. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1992, I-j - 298-bet, II j - 298-bet, III-j - 308-bet.
- 37.Abu Ali ibn Sino tug'ilgan kunning 1000 yilligiga. -T., «Fan», 1980, 149-bet.
- 38.Abul Qosim Firdavsiy. Shohnoma. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr. -T., 1984, 206-bet.
39. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari. Farg'ona, 1998 y., 140b.
- 40.Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T., «O'qituvchi», 1992, 106-bet.
41. Alisher Navoiy. Arba'in. -T., «Meros», 1991.201-bet
- 42.Alisher Navoiy. Hayratul Abror. –T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989.165-bet
- 43.Avazov I. Muhammadxo'ja Behbudiy-ma'rifatparvar. -T., 1993.208-bet
- 44.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T., Xalq merosi nashr., 1993.98-bet
- 45.Amir Temur o'g'itlari. -T., Navro'z, 1992, 64-bet.
- 46.Ahmedov A. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. T.: “Fan”, 1991.203-bet
- 47.Ahmad Yugnakiy. “Hibatul haqoyiq”. –T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971,278-bet.
- 48.Axloq-odobga oid Hadis namunalari. -T., «Fan», 1970, 170-bet. T.«Fan», 1990, 20-bet.
- 49.Burhonuddin az-Zarnujiy. Ta'lim ul-muta'allim. – Qozon.: 1915, 88--bet.
- 50.Bahodirov O. Yangicha an'ana va urf-odatlar hayotga. -T., «O'zbekiston»,

1985,96 -bet.

51. Islom: E'tiqod va maslak. (tuzuvchi A.Samad). -T., 1988.78-bet
52. Islom. Insoniylikka da'vat. -T., «Yosh kuch», 1989. №8.
53. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. -T., 1999. 143-bet.
54. Yo'ldoshev Z, Hasanov S. «Avesto»da axloqiy-ta'limiy qarashlar.-T., 1992.
55. Karimov Q. Ilk badiiy doston. -T., Fan, 1976, 208-bet
56. Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov. -T., O'qituvchi, 1986. 153-bet. (Boshqa misollar ham shu nashrdan olindi.)
57. Kaykovus. Qobusnoma. -T., «Meros», 1992,176-bet.
58. Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. Majma' ul-Maqsud yoki "Muhtasar ul-Viqoya"ning o'zbekcha sharhi. Nashrga tayyorlovchilar M. Hasaniy va boshqalar. - T., "Adolat", 1995, 82-bet.
59. Munavvarov A.K.. Oila pedagogikasi. -T., «O'qituvchi», 1994, 304-bet.
60. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning shakl va metodlari. -T., «Fan», 1995, 108-bet.
61. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. -T., «Fan», 1993, 112-bet.
62. Mahmudov K. Turmush ziynati. -T., «O'qituvchi», 1991, 134-bet.
63. Mahmudov K. Mehmonnoma. -T., «Yosh gvardiya», 1989, 140-bet.
64. Mirolimov Sh. Yangi an'analar, yangi odatlar. -T., «Yosh gvardiya», 1975, 32-bet.
65. Mirolimov Sh. Mahalla mehri. -T., «Navro'z», 1994, 136-bet.
66. Ma'naviyat darsligi. Tuzuvchi S.Nishonova. -T., «O'qituvchi»,1994, 118-bet.
67. Mahkamov U. Axloq-odob saboklari.-T., «Fan», 1994, 94-bet.
68. Sotliqov T. Xalq an'analari va Horazm mutafakkirlarining pedagogik merosining bolalar tarbiyasidagi ahamiyati. Urganch., 2000.96-bet
69. To'hliiev B. Hos Yusuf Hojibning «Qutadg'u bilig» asariga so'z boshi. Ko'rsatilgan asar, 6-bet.

- 70.Qadimiy hikmatlar. –T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987, 116-bet.
 - 71.Qurʼoni Karim. -T.: Choʻlpon, 1992.672-bet
 - 72.Oʻrta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti. –T.: 1996, 91-bet.
 - 73.Hasanboeva O va boshqalar. Oila pedagogikasi. -T., “Aloqachi” 2007.286-bet
 - 74.Shoumarov Gʻ.B. Muhabbat va oila. -T., «Ibn Sino», 1994, 104-bet.
 75. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq.”- T., “Oʻqituvchi”, 1992y.160-bet
 - 76.“Barkamol avlod yili davlat dasturi” Toshkent 2010.
 - 77.A.Mavrulov “Maʼnaviy barkamol inson tarbiyasi” Toshkent. Oʻzbekiston nashriyoti. 2008 yil 154-bet
 78. M.Imomnazarov,M.Eshmuhammedov. “Milliy maʼnaviyatimiz asoslari”- Toshkent islom universiteti” -2011yil, 430-bet
- Ilmiy jurnaldagi maqolalar
79. Aliev A. Jadidchilik maʼrifati va taʼlim-tarbiya. «Maʼrifat» gazetasi. 1993
 - 80.Xushmurodova I. “oʻquvchilarda maʼnaviy madaniyatni rivojlantirish// J. Taʼlim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar.-Toshkent 2007-№3-26-28 betlar
 - 81.Xushnurodova I. Toshmurodova Q. “Talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda Sharq mutaffakirlari asarlari// J. Xalq taʼlimi-Toshkent 2003№2-15-18
 - 82."Yoshlar yili" Davlat dasturi toʻgʻrisida: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: 2008 yil, 29 fevral / Xalq soʻzi, 2008, 1 mart/
 - 83.Matrasulov D. Yoshlar istiqboli yoʻlida gʻamxoʻrlik qilish, kelajak avlod tarbiyasi uchun qaygʻurish, oʻz ertiasini oʻylash mamlakat siyosatining ustuvor yoʻnalishidir: 2008 yil "Yoshlar yili" /Inson va Qonun. 2008, 10 iyun/.
 84. Mirzo Gʻ. Yosh avlod xuquq va manfaatlarining muxim kafolati: 2008 yil "Yoshlar yili" /Xalq soʻzi. 2008, 4 iyun/
 - 85.Saifnazarova F. Ertamizni hal qiluvchi kuch: 2008 yil "Yoshlar yili"

/Ma'rifat. 2008, 24 may/

Internet saytlari

81.www.ppf.uni.udm.ru

82.www.talant.spb.ru/wald.html

83.www.school.edu.ru.

84.[www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).


85.www.ppsy.ru.


86.www.search.re.uz – O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.


87.www.ictcouncil.gov.uz-Kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi muvofiq lashtiruvchi Kengashining sayti.

ILOVALAR.

1-ILOVA.







**Mehnatkash insonning
iqtisodiy tafakkurini
tarbiyalash**


**Barkamol
↑
avlod
tarbiyasining
vazifalari**

**SHaxsning
ma`naviyatini
shakllantirish**


**Kishining tabiat bilan
munosabatini
uyg`unlashtirish**

**Ruhiy jismoniy
sog`lomlikni
tarbiyalash**

**Shaxsda individuallik va
jamoaviylikni tarbiyalash**



1-жадвал



**«Aqliy hujum» uslubi yordamida barkamol shaxs tushunchasini guruh
bo'lib aniqlash.**

1 mashq: Kichik jamoalarda barkamol avlod tushunchasiga quyidagi savollar bo'yicha ta'rif berish.

1. Barkamol avlod kim?

2. Barkamol avlod qanday muhitda tarbiyalanadi?

3. Barkamol avlodga ehtiyojning sabablari?

4. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

5. Barkamol shaxs shakllanishi yurtga nima beradi?

2 mashq: Yakkahol ish. Vazifa:

(1) oq varaqqa «SHu kungacha erishgan yutuqlarim ota-onamning qaysi xizmatlari evaziga ro'yobga chiqdi va men o'zim farzandlarimni barkamol avlod darajasida tarbiyalashda qanday ishlarni amalga oshiryapman?» savollariga javoblarni yozish kerak;

(2) mavzu buyicha 1 dakikaga mo'ljallangan hikoya tayyorlanadi. Individual taqdimotlar videotasmaga tushiriladi.


«Barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning roli» mavzuida tarkatma material tarkatiladi.

Kutilayotgan natijalar:

1) *Barkamol shaxs tushunchasi va uning tarixiy asoslari va o'ziga hos xususiyatlarini aytib bera oladilar;*

2) *Barkamol avlodni tarbiyalash uchun kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq bilishadi.*

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, videokamera, flomasterlar.



Vatanimizning kelajagi bo'lgan yoshlar milliy qadriyatimiz ruhida qanchalik tarbiya topsalar, xalqimiz kelajagi ham shuncha porloq bo'ladi. Biz murabbiylarning asosiy vazifamiz o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy etuk, mustaqqil, erkin fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalash masalasi kun tartibimizdagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmokda.

SHuni qayd etish lozimki, hozirgi kun talaba-o'quvchilari juda ziyrak, izlanuvchan, harakatchan, yangi fikrlarga ochiq yoshlar. SHu sababdan ham aynan ular diqqat markazimizda. Har bir talaba-o'quvchi o'zgacha, noyob shaxs, shuning uchun ularga alohida e'tibor darkor. Murabbiyning asosiy vazifalaridan biri erkin psixologik muhit yaratib, talaba-o'quvchilarga ma'suliyat berish - hozirgi kun talabidir. Ko'prok interfaol, innovatsion tarbiya texnologiyalardan foydalanib, ya'ni har bir talaba-o'quvchining shaxsiy ishtirokini ta'minlash, eksperiment orkali, ya'ni o'zi bajarib tushunishiga intilish – muvaffakiyat garovidir (*«Eshitib – unutaman; ko'rib – yodda tutaman; bajarib – tushunaman. (Konfutsiy).*

YAna bir muhim garov – oddiylikda. Fikrlarimizni kanchalik oddiy bayon etib,

sodda mashqlar orkali tushuntirsak talaba-o'quvchilar shunchalik oson qabul qilishadi (*«Dohiylik – oddiylikdadir» - kadimgi Hitoy maqoli*).

Murabbiylarning yana bir vazifasi talaba-o'quvchilarimizning liderlik sifatlarini rivojlantirishga ko'mak berishdir. Hozirgi kun lideri kim? U qanday hususiyatlarga ega bulishi kerak? Katta hayot bo'sag'asida turgan yoshlarimizda kerakli bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirish – murabbiylarning eng oliyanob vazifisidir (*«Kishiga baliq ber – va uni bir kunlik ochlikdan asra; kishiga baliq ovlashni o'rgat – va uni butun umrga ochlikdan asra» (Konfutsiy)*).

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida muvavaffaqiyat ko'p jihatdan tarbiyachining shaxsiyatiga bog'liqdir. SHuning uchun murabbiy shaxsining shakllanishiga va rivojiga, murabbiyning o'z imkoniyatlariga ishonchini yanada ortishiga qaratilgan mashqlardan foydalanish maqsadga. Ijodkorlik bor joyda yangilanish bor, shuning uchun bir qator mashqlar murabbiylarning «yashiringan» imkoniyatlarini ochishga qaratilgan bo'lib, ularning imkoniyatlarini cheksizligidan dalolat beradi (*«Men – ijodkor shaxs», «Jamoatqdimoti», «Vaqt top», «Hamkorlik va raqobat» va h.*).

«Aqliy hujum» uslubi yordamida namunali murabbiy imidjini guruh bo'lib aniqlash.

1 mashq: Kichik jamoalarda “Guruh portreti” uslubi yordamida namunali murabbiyga ta'rif berish.

“Guruh portreti” : Ishlashdagi izchillik shunday:

1. Ekranda hazil shaklda chizilgan portret namoish etiladi. Bu - ramziy murabbiyning portreti.
2. Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat etiladi: “Namunali bo'lish uchun murabbiy tanasidagi har bir a'zo muayyan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Vazifalarni aniqlang.”
3. Har bir jamoaga ekrandagi portret nushasi beriladi. Har bir jamoa fikrlab, ushbu portretga chizmalar yordamida ta'rif beradi.

4. “Guruh portreti” ishning natijasi hisoblanadi. U bilan keyinchalik ishlash, ya’ni tahlil etish, aniq qadamlarni takomillashtirish, yaxshilash va boshqa maqsadlarda qayta ishlab chiqish mumkin.

Ushbu uslubdan “Murabbiylik soat”lari quyidagi mavzularga bag’ishlanganda foydalanish mumkin: “Namunali o’quvchi”, “A’lochi portreti”, “Muammoli talaba”, “Namunali (kasb egasi)” va hokazo.

Avvalam bor, o’zimiz – murabbiylar ham notiqlik jihatidan yorqin namuna bo’lishimiz darkor. Notiqlik mahorati – muvaffaqiyat muhim omillaridan ekan, yoshlarimizda tarbiyaviy soatlarda erkin, tezkor fikrlashga imkon yaratuvchi zarur sharoitlar yaratishimiz, turli mashqlar tashkil etishimiz lozim.

Notiqlik mahorati – ishontirish usullarini o’rgatuvchi fan. Notiqlik mahorati – namunali murabbiy muvaffaqiyati uchun muhim omil.

«Aqliy hujum» yordamida yaxshi notiq qanday hususiyatlarga ega bo’lishi kerakligini aniklaymiz

Notiqlik mahoratini oshirishga qaratilgan mashqlar:

«Reklama qilish» (o’zini o’zi, do’stini, guruhini, biror bir buyumni), «Hamma shanbalikka», «Tabriklayman, kutlayman» kabi mavzularda qisqa nutq tuzish. Bundan tashqari tezkorlikni, hozirjavoblikni oshiruvchi «Blits-o’yin», «Hikoya tuzish», «Ta’rif berish» (masalan buyumga, rangga, harakatga, insonga) kabi mashqlar.

Videotrening yordamida tinglovchilar o’zlarini notiq sifatida baholaydilar. Baholashga ko’mak beruvchi savollar:

- a. O’zimizni notiq sifatida chetdan kuzatib, qanday ijobiy tomonlarimizni ko’rdik (ihtiyoriy ravishda har bir tinglovchi o’ziga baho beradi);
- b. O’zimizni notiq sifatida chetdan kuzatib, qanday salbiy tomonlarimizni ko’rdik (ihtiyoriy ravishda har bir tinglovchi o’ziga baho beradi);
- c. Qaysi bir tinglovchini eng zo’r notiq deb hisoblaysiz? (O’zini maqtashi ham mumkin).

Xulosa. Nutqqa tayyorgarlik – psixologik jihatdan sovg’a tanlashga o’xshaydi. Sovg’a in’om etuvchilar uch toifaga bo’linadi:

1) O'ziga keraksiz narsani birovga sovg'a qilib yuboruvchi (madaniyatsiz);

2) O'ziga ravo ko'rgan narsani birovga in'om etuvchi (sovg'a taqdim qiluvchi sovg'a oluvchini o'zidek ko'radi);

3) O'ziga ravo ko'rgan narsadan ham a'lo narsani in'om etuvchi
Nutq shaxsan notiqning o'ziga yoqmasa, tinlovchilarga in'om etmasligi lozim. Nutq ham sovg'a kabi tinglovchilar uchun yoqimli va kerakli bo'lishi darkor. Shundagina nutq samarali bo'ladi.

«Murabbiy-fasilitatorga maslahatlar» yozma ravishda tarqatiladi.

1) Kutilayotgan natija: Murabbiy-trener vazifasini aytib bera oladilar

2) «Namunali murabbiy bo'lish uchun kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq bilishadi

3) O'zlari uchun namunali murabbiy bo'lish maqsadida "Shaxsiy reja" tuzadilar. Zamonaviy murabbiyga quyilgan talablar aniqlanadi. Har bir tinglovchi o'zini tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlaydi va bu ularga kelgusi ish rejasiga o'zining ustida ishlashga oid vazifalarini kiritishga yordam beradi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, video-kamera, flamasterlar.

7-ILOVA.

<i>Notiqning nutq samarasini ta'minlovchi omillar</i>	<i>Nutq samarasiga putur etkazuvchi omillar</i>
Tinglovchi auditoriyani hurmat qilish	Auditoriyaga befarq bo'lish
Tinglovchilarni aqlli deb bilish (CHunki jamoa ongi doim yakka ongdan yuqoridir)	O'zini o'ta bilimdon deb bilish
Tinglashni o'rganish	Tinglashga toqatsizlik
Madaniyatli bulish	Madaniyatning etishmasligi
So'z boyligi (sinonimlardan unumli foydalanish)	So'z boyligining yo'qligi, jargonizmlarni, varvarizmlarni ko'plab ishlatish
Savodli bo'lish (orfoepik, sintaktik xatolarga yo'l qo'ymaslik)	Tallaffuzda, jumla tuzishda g'alizliklar
Mantiqiy so'zlash (tizimlilik) : Nutq so'zlashda «Muvaffaqiyat moduli»dan foydalanish (1. Nima? 2. Nima uchun? 3. Qanday qilib? 4. Xulosa)	Uzuk-yuluq gaplar
Me'yorda imo-ishora, mimika, pantomimika	Jonsiz yoki o'ta his-tuyg'uli so'zlash
Nutqqa jiddiy tayyorgarlik	Nutqni rejalashtirmaslik
Joy psixologiyasini o'rganish	Noma'lum joy bilan tanishmaslik
Tinglovchi auditoriya psixologiyasini o'rganish: A) yosh psixologiyasi B) jins psixologiyasi V) kasb psixologiyasi va hokazolar.	Auditoriya psixologiyasidan emas, o'z istaklaridan kelib chiqib so'zlash
To'g'ri ton, tembr, tezlik tanlash	Muvozanatsiz so'zlash
Nutqni yurak orqali o'tkazish (jonli, samimiy so'zlash)	Nosamimiy, befarq so'zlash (hisobot uchun)
Yangicha (innovatsion) usullardan foydalanish	An'anaviy fikrlash
Nutqning betakrorligi (shaxsiy hayotiy tajriba bilan sug'orilganligi)	Odatiy, kitobiy so'zlash

Tarqatma material:

NAMUNALI MURABBIY BO'LISH

<i>Yordam beruvchi omillar</i>	<i>To'sqin bo'luvchi omillar</i>
O'zim:	O'zim:
• Maqsadga intilib astoydil ishlash • Turli imkoniyatlardan foydalanib, mashq qilish • Tanqidlarni to'g'ri qabul qilish • Notiqlik haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish • Hamkasabalarimni kuzatish va ulardan o'rganish • Notiqlik to'g'risidagi video-kassetalarni tomosha qilish • Kuchli va zaif tomonlar ro'yhatini tayyorlash	• Bilim yetishmasligi • Qo'rquv • O'ziga ishonchning yetishmasligi • Manbalar tanqisligi • YOmon odatlar/illatlar • Foydaning darrov ko'rinmasligi • Tayyorgarlikning kamligi • Jismoniy nuqson
Boshqalar:	Boshqalar:
• Ular menga ma'lumotlar bilan yordam berishlari mumkin • Yo'qsalish uchun hamkasabalarimdan maxsus soxalar bo'yicha maslahatlar olish	• Meni tanqid qilishadi • Ustimdan kulishadi • Tiborsizlik qilishadi
Tashkilot:	Tashkilot:
• Mening o'sishim uchun manbalar qidiradi • Meni treningga jo'natadi • Meni rag'batlantiradi	• Qo'llab-quvvatlamaslik • Qadrlamaslik • O'sish uchun imkoniyatlar yaratmaslik

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar talaba-o'quvchilarni notiqlik mahoratini oshirish yo'llari, nutqqa tayyorgarlik noan'anaviy usullari bilan bilan tanishishadi va o'z tajribasidan va tajribali notio'lar hayotidan, ijodidan misollar keltiradi. O'zining va o'zgalarning tajribasi tahlil qilinadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, videoprojektor, videokamera, ekran, marker, qog'oz, flomasterlar.

10-mavzu: Komillikka intilish (Trening)

Hozirgi kunda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz - jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ya'ni ularni komil inson qilib tarbiyalash.

“Aqliy hujum” uslubi orqali komillik nima, komil inson deganda qanday insonni ko'z oldimizga keltiramiz degan fikrlarni tinglovchilardan jamlab olamiz.

Har bir xalqning o'zi intiladigan komillik timsollari bo'ladi. Ular ajdodlarimizning o'z farzandlarini mard, sog'lom, qo'rqmas va mukammal qilib tarbiyalash yo'lidagi orzularini ifodalaydi.

Vazifa: Tinglovchilarning komillik timsollarini aniqlash. Ushbu mashq individual tarzda bajariladi. Tinglovchilar komil inson haqidagi orzulari qanday kishilar siymosida o'z ifodasini topganligini aniqlashadi va daftarlariga belgilashadi. So'ng, jamoadoshlari bilan fikr almashishadi.

Maktab kishining ma'naviy shaxs sifatida shakllanishida poydevor rolini o'ynaydi. Bola bu erda nafaqat bilim oladi, balki uning dunyoqarashi kengayadi. Uning aql-idrokli, teran fikr yurituvchi komil inson bo'lib yetishida bu muqaddas dargohning ahamiyati katta. O'quvchi talaba sizdan ko'p narsani kutib qoladi. Siz unga yordam berasiz, uni yo'naltirasiz, to'g'ri yo'l ko'rsatasiz. Shuning uchun o'zingiz ham komillikka intilishingiz lozim.

Buni siz “Mukammallikka intilish tizimi sizda mavjudmi?” so'rovnomasi orqali bilishingiz mumkin. Bu so'rovnoma 15 ta'kiddan tarkib topgan.

9-ILOVA

TARQATMA MATERIAL:

«Komillik tizimi Sizda mavjudmi?» testi

		Ballar
1.	Men o'zimni o'rganishga intilaman.	
2.	Ish bilan va uy yumushlari bilan qanchalik band bo'lmay, o'zimga albatta vaqt ajrataman.	
3.	Yo'limda paydo bo'layotgan to'siqlar meni faollikka chorlaydi.	
4.	Javob-aloqani kutaman, chunki bu o'zimni baholashga va tahlil qilishga yordam beradi.	
5.	O'z faoliyatimni nazorat qilishni odat qilib olaman va albatta bunga vaqt ajrataman.	
6.	Men hissiyotlarimni va tajribamni tahlil qilaman.	
7.	Men ko'p o'qiyman.	
8.	Meni qiziqtirayotgan masalalar bo'yicha doim bahs-munozaraga kirishaman.	
9.	Men o'z imkoniyatlarimga ishonaman.	
10.	Samimiy bo'lishga intilaman.	
11.	Atrofdagilarning menga ta'sirini anglab yetaman.	
12.	Kasbiy mahoratimni oshirishga intilaman va ijobiy natijaga egaman.	
13.	Yangilikdan zavq olaman.	
14.	Oshib borayotgan mas'uliyat meni cho'chitmaydi.	
15.	Xizmat zinapoyasidan ko'tarilishimga ijobiy munosabatda bo'lar edim.	
	Jami	

5 - agar mazkur ta'kid haqiqatga to'la mos kelsa

4 – ko'proq mos kelsa

3 – ham ha, ham yo'q

2 – ko'proq mos kelmaydi

1 – mos kelmaydi

So'rovnoma natijalari:

15 - 35 – Rivojlanishdan to'htash kuzatiladi.

36 - 54 – Mukammallikka intilish tizimi mavjud emas, ko'pincha bu holat sharoitga bog'liq.

55 - 75 - Faol rivojlanish kuzatilmoqda.

I. Farzandlari va shogirdlariga aytgan pand-nasihatlari, axloqiy intellektual salohiyatga yo'naltiruvchi asarlar	II. Buyo'q insonlarning umumiy tarzdagi pand-nasihatlari, ma'naviy-ahlohiy yo'riqnoma sifatidagi asarlar
1. Kaykovusning «Qobusnoma»;	1. Muhammad sallollohu alayhi
2. Shayh Najmiddin Kubroning «Fi al-adab» («Odob qoidalar»);	vassallamning Hadisi shariflari;
3. Sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari»;	2. Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri»;
4. Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin»;	3. Mahmud
5. Mavlono Muhammad Qozining «Hukmdorga o'gitlar» kabi asarlar	Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»;
	4. Yusuf Hos Hojibning «Qutadg'u bilig»;
	5. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» kabi asarlar;
	6. I.A. Karimov asarlaridagi barkamol avlod tarbiyasiga oid g'oyalar.

10-ILOVA.

